

**O.J.SUYUNOV.  
SH.O'.TASHMATOV .**

**«NOTIQLIK SAN'ATI  
VA  
NUTQ MADANIYATI»**

**fanidan  
ta'lim texnologiyasi**



**SAMARQAND – 2010**

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA  
O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI

«Notiqlik san'ati va nutq madaniyati»

fanidan

ta'lim texnologiyasi

SAMARQAND – 2010

### **Annotatiya**

Pedagogik faoliyat bevosita nutq madaniyati bilan bog'liq bo'lganligi sababali biz «Notiqlik san'ati va nutq madaniyati» kursini o'rganish lozim deb bilamiz. Biz ushbu kursda notiqlik san'atining rivojlanish tarixi, adabiy til va norma, o'zbek tilining rivoji, pedagog nutqi va unga qo'yiladigan talablar kabi masalalarni tahlil etamiz. Talabalarni nafaqat notiqlikga oid bilimlar bilan qo'rollantiramiz, balki ularda notiqlik san'atiga va nutq madaniyatiga nisbatan yangicha munosabat uyg'otishga e'tibor qaratamiz.

**Tuzuvchilar: p.f.n., dots. v.b., Suyunov O.J.;  
o'qituvchi Tashmatov Sh.O'.**

**Taqrizchi: Shodiyev N. p.f.d. – Samarqand Davlat Universiteti.**

Ўқув-услугий мажмуа «Касб-хунар таълими» кафедрасининг 2009 йил  
\_\_\_\_\_даги мажлисида кўриб чиқилди ва тасдиқланди. (Баён №\_\_)

**Кафедра мудирини, профессор  
Муҳаммедов**

**М.М.**

ИУУБнинг 2009 йил \_\_\_\_\_ сонли баённомаси билан  
чоп этиш учун тавсия этилди.

## KIRISH

O'zbekiston **Respublikasida kadrlar tayyorlash Milliy dasturi, "Ta'lim to'g'risida"**gi Qonun, Respublika Prezidentining Farmon va Vazirlar Maxkamasining bir qator qarorlarida Davlat tili masalaciga alohida e'tibor qaratilgan.

Nutq madaniyatini shakllantirish va yuksaltirishida, yetuk kadrlar tayyorlashda Davlat tili o'zbek adabiy tilining o'ziga xos o'rni va roli borligi inkor etib bo'lmaydigan haqiqatdir. Shu munosabat bilan hozirgi davrda, birinchi navbatda Davlat tili-o'zbek tili va kasbga oid nutq madaniyatini mukammal egallash alohida ahamiyat kasb etadi.

Pedagogik faoliyat bevosita nutq madaniyati bilan bog'liq bo'lganligi sababali biz «Notiqlik san'ati va nutq madaniyati» kursini o'rganish lozim deb bilamiz. Biz ushbu kursda notiqlik san'atining rivojlanish tarixi, adabiy til va norma, o'zbek tilining rivoji, pedagog nutqi va unga qo'yiladigan talablar kabi masalalarni tahlil etamiz. Talabalarni nafaqat notiqlikga oid bilimlar bilan qo'rollantiramiz, balki ularda notiqlik san'atiga va nutq madaniyatiga nisbatan yangicha munosabat uyg'otishga e'tibor qaratamiz.

<b>1</b>	<b>«Notiqlik san’ati va nutq madaniyati» o‘quv predmetining dolzarbligi va o‘qitish strukturasi</b>
----------	---

Notiqlik mahorati predmeti-og‘zaki va yozma nutqni tinglovchilarga jonli, ifodali va ta’sirchan yetkazish malakasini egallash haqida tushuncha beradi.

Notiqlik san’ati murakkab san’at bo‘lib, uni egallash kishidan qunt, chidam, malaka va tajriba talab etadi.

Nutq madaniyati har bir shaxsning umumiy madaniyatini bir qismi bo‘lib hisoblanadi. Nutq madaniyati insonning fikrlarini aniq, ravon, sodda, tushunarli va ifodali qilib tinglovchilarga yetkazishga yordam beradi. Bo‘lajak pedagoglar uchun muomala madaniyatini, nutq madaniyatini egallash ayniqsa zarur bo‘lib hisoblanadi. Nutq madaniyatining nozik qirralarini bilish, nutq sofligiga va to‘g‘ri talaffuzga erishish lozim. Pedagog o‘z fikrlarini talabalarga aniq va ravshan yetkazish natijasidagina yuqori o‘zlashtirish ko‘rsatkichlariga erisha oladi.

*O‘qitish maqsadi va vazi falari*

«Notiqlik san’ati va nutq madaniyati» kursini o‘rganishdan maqsad talabalarda pedagogik nutq madaniyatini shakllantirish. Kelajakda talabalarining pedagogik faoliyatini samarali bo‘lishini ta’minlash. Pedagogik faoliyatda notiqlik san’atini qo‘llash va talabalarni pedagogik mahoratini rivojlantirishdir.

«Notiqlik san’ati va nutq madaniyati» kursi o‘z oldiga quyidagi vazifalarni qo‘yadi:

- O‘zbekiston oliy ta’lim tizimida notiqlik san’atidan foydalanishni qo‘llash usullari va shart –sharoitlari bilan tanishish;

- notiqlik san’atiga nisbatan to‘g‘ri munosabatni uyg‘otish;

-talabalarni nutq madaniyatining qoidalari bilan tanishtirish;

-nutq madaniyati yuzasidan ko‘nikma va malakalarni shakllantirish;

-pedagogik texnologiyalarni qo‘llashda notiqlik san’ati va nutq madaniyatidan foydalanish ko‘nikmasini hosil qilish.

Magistr tinglovchilarida notiqlik san’atining qoidalari, nutq madaniyatini o‘stirish usullari va adabiy til normasi haqida *tasavvur shakllantiriladi.*

Kursni o‘rganish jarayonida tinglovchilar notikli mahoratining elementlari va texnikasini amaliyotda qo‘llashni, til vositalaridan va uslubiy figuralardan o‘z o‘rnida foydalana olishni, leksiya, taqriz, annotatsiya, ishlarini tayyorlashni *o‘rganadilar.*

Kurs davomida o‘z nutq madaniyatini o‘stirish, adabiy til va adabiy normalarga amal qilish, nutq texnikasi va aniq talaffuzga amal qilish *ko‘nikmasini hosil qilinadi.*

*O‘quv rejasidagi boshqa fanlar bilan aloqasi*

«Notiqlik san'ati va nutq madaniyati» kursi o'z mohiyatiga ko'ra iqtisodiyot o'qitish metodikasi, pedagogika, psixologiya, yoshlar fiziologiyasi kabi fanlar bilan mustahkam aloqa hosil qiladi.

«Notiqlik san'ati va nutq madaniyati» kursi magistratura yo'nalishidagi kasbiy ta'lim talabalariga birinchi kursni birinchi semestrda o'qitiladi. Fanni o'rganishda hozirgi kun talabidan kelib chiqqan holda yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish, inson fikri va nutqini o'rganish borasida olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlar bilan va ularning natijalari bilan tanishib borish tavsiya etiladi. «Notiqlik san'ati va nutq madaniyati» kursi umumiy 60 soatdan iborat.

Auditoriya soatlari 40 soat  
 Ma'ruza 16 soat  
 Amaliy mashg'ulotlar 24 soat  
 Mustaqil ta'lim 20 soat

«Notiqlik san'ati va nutq madaniyati» kursini o'rganishda quyidagi pedagogik texnologiyalar qo'laniladi: fikirlashga o'rgatuvchi psixo- texnik o'yinlar, ishbilarmon o'yinlar, programmalashtirilgan ta'lim texnologiyalari, sinkveyn, insert, klaster va hamkorlikda o'qitish texnologiyalari va boshqalar.

**I. «Notiqlik san'ati va nutq madaniyati» kursidan ma'ruza, amaliy mashg'ulotlari mavzularining soatlar bo'yicha taqsimot jadvali**

№	Bo'lim va mavzular	O'quv soatlari .			
		Jami	Ma'-ruza	Semi-nar	Mustaq-qil ta'lim
1	Mavzu. Notiqlik san'ati va nutq madaniyati kursiga kirish.	4	2	2	2
2	Mavzu. Qadimgi Gresiyada notiqlik san'atining rivojlanishi. Rim notiqlik san'ati.	4	2	2	4
3	Mavzu. Qadimgi Sharqda notiqlik san'atining rivojlanish tarixi.	4	2	2	4
4	Mavzu. Tilshunoslik va uning bo'limlari.	4	2	2	2
5	Mavzu. Adabiy til va norma. O'zbek tili va uning rivoji.	4	2	2	2
6	Mavzu. Til va uslub.				

		4	2	2	2
7	Nutq madaniyatini o‘stirish usullari.	4	2	2	2
8	Mavzu . Pedagog nutqi va unga qo‘yiladigan talablar.	4	2	2	2
1	Amaliy mashg‘ulotlar Muomala madaniyati.	2		2	2
2	Leksiya, taqriz,annotatsiya ishlarini tayyorlash metodikasi.	4		4	
3	1. Nutq texnikasi, nutq sofligi, to‘g‘ri talaffuz.	2		2	
JAMI: 60		40	16	24	20

2	<b>«Notiqlik san’ati va nutq madaniyati» o‘quv predmetining mazmuni</b>
---	---

### **1 – mavzu. Notiqlik san’ati va nutq madaniyati kursiga kirish**

Notiqlik san’ati va nutq madaniyati predmeti, notiqlik san’ati va nutq madaniyati kursining maqsadi, vazifalari. ( jamiyatni bir yo‘nalishda harakatini ta’minlash, axborot va tajriba almashinuvi, kelajakni rejalashtirish).Nutq madaniyati va uning ahamiyati. Notiqlikga qo‘yiladigan talablar (auditoriyaning e’tiborini ma’lum muammoga tortish, o‘z fikrini ommaga to‘g‘ri yetkaza olish, ommani o‘z ortidan yetaklay olish, safarbar eta olish va b.) Notiqlik mahoratining asosiy ilmiy qoidalari.(mantiq, e’tirof, qarama – qarshilik, yetarli asos, ) Notiqlik turlari ( ijtimoiy-siyosiy notiqlik, sud notiqligi, akademik notiqlik, diplomat notiqligi, harbiy notiqlik, marosim, urf-odat notiqligi ). Notiqlik san’atida amal qilish lozim bo‘lgan umumiy qonuniyatlar (auditoriya bilan mustahkam aloqada bo‘lish, notiq o‘zining sub’ektiv fazilatlarini hisobga olishi, ob’ektiv shart-sharoitlarni hisobga olishi, nutq madaniyatiga va malakasiga ega bo‘lishi lozim, madaniy saviyasi yuqori va masalani chuqur o‘rgangan bo‘lishi talab etiladi ) «Nutq madaniyati asoslari» kursining asosiy maqsadi, ob’ekti (nutqning til tuzilishi) va vazifalari. Nutq turlari ( ichki va tashki ,og‘zaki va yozma).

### **2- Mavzu. Qadimgi Gresiyada notiqlik san’atining rivojlanishi. Rim notiqlik san’ati.**

Qadimgi Gresiyada notiqlik san'atining rivojlanishi. (siyosiy notiqlik, savdo notiqligi, sud notiqligi ) Lisiy, (eramizdan oldingi V asr oxiri va 1V asr boshlarida yashab, ijod etgan). Lisiy notiqligining xususiyatlari (hikoyachilik, nutqni kishi harakteriga mos ravishda tuzish, nutqining anikligi, soddaligi va tabiiyligi, takrorlanmaslik). Demosfen (eramizgacha 384 –322 yillar yashab ijod etgan). Demosfen sud notig'i va siyosiy notik sifatida tanilishi. Aristotelning "ritorika" asari. «Ritorika» asari eramizdan oldin 335 yilda yozilgan bo'lib uch qismdan iborat (1. Notiklik san'atining prinsiplari. 2. Notiq uchun zarur bo'lgan shaxsiy xususiyatlar va qobiliyat. 3. Nutq texnikasi, nutq usullari). Qadimgi Gresiyada vujudga kelgan notqlik turlari va o'ziga xos xususiyatlari. Seseronning notqlik haqidagi fikrlari (o'ziga ishonch, dalillash, material to'plash va uni to'g'ri joylashtirish). Seseron kompozitsiyasi (kirish, ishning mohiyatini bayon etish, planning keyingi qismlarini ifodalash, dalillar, asosiy mazmunni ta'kidlash, xulosa ). Seseron asarlari ( «Notiq haqida», « Notiq», « Taniqli notiqlar haqda »). Kvintioian notiqlik san'ati haqida. Kvintilian asari ("Notiq bilimi haqida" ).Kvintilian yangi maktabning birinchi o'qituvchisi.

### **3- mavzu. Qadimgi sharq notiqlik san'ati.**

O'rta Osiyoda notiqlik san'atini rivojlanishi.(voizlik, voiz, va'z). Ar-Roziy(1X asrning oxiri va X asrning boshlarida yashab ijod etgan ). Abu Nasr Farobiy ( 1X – X asrlarda ijod etgan).A.N.Farobiyning nutq va aql to'g'risidagi fikrlari (til, grammatika, mantiq). Abu Ali ibn Sino (980- 1037 yillar yashab, ijod etgan). Ibn Sinoning ta'lim,- tarbiya va nutq haqidagi fikrlari. Nasixat qilish haqida. Mavlono Riyoziyning notiqlik faoliyati va notiqlik san'ati haqidagi fikrlari (harakat, mimika, aktyorlik, emotsionallik). Voiz Koshifiy notiqligi haqida. A.Navoiy ijodi va notiqlik haqidagi fikrlari ( haqqoniylik, soddalik, el uchun foydali bo'lishi).Voizga qo'yiladigan talablar (ta'sirchan so'z ,yangi xabar, bilimdonlik,so'z va ish birligi, qisqalik va ravshanlik). So'z kuchi va uning inson psixikaisiga ta'siri. So'z fikrning o'zgargan shakli sifatida. So'zning biologik organizmlarga ta'sirini o'rganish borasidagi izlanishlar.

### **4-mavzu. Tilshunoslik va uning bo'limlari**

O'zbek tili va uning taraqqiyot bosqichlari. Lingvistika, Fonetika (fono-tovush) nutq tovushlarini o'rganadigan bo'lim sifatida.Tovush turlari (unli va undosh, jarangli va jarangsiz). Orfografik qoidalar (orfo-to'g'ri, grafo-yozaman), leksikologiya (grekcha-leksikoye ya'ni so'z degan ma'noni bildiradi), tilning lug'at tarkibi, tildagi barcha so'zlar majmuidir. Til lug'at tarkibining o'zgarib borishi (ichki va tashqi). Jargonlar va ularning paydo bo'lishi. Grammatika so'z va gap qurilishi, gapda so'zlarning o'zgarishi va o'zaro birikishi haqidagi fandır. Grammatikaning qismlari ( morfologiya, sintaksis) . Yozuvlar tarixi.



## **5-mavzu. Adabiy til va norma**

Adabiy til haqida tushuncha. Til normasi nutq madaniyati nazariyasining markaziy tushunchasidir. Adabiy til normasining kelib chiqishi va rivojlanish qonuniyatlari. Adabiy til normasi. Tilning umumiy va xususiy normalari. O‘zbek tili normalarining turlari ( O‘zbek adabiy tili normasi. O‘zbek laxja va shevalari normasi. O‘zbek so‘zlashuv nutqi normasi. O‘zbek tilining ijtimoiy tarmoqlari, ya’ni –ijtimoiy dialektlar, jargonlar va boshkalar). Shevalar va ularning adabiy tilga ta’siri. Adabiy til normalarining o‘zgaruvchanligi va barqarorligi (leksik-semantik normalar, ya’ni so‘zni qo‘llash normalari, talaffuz normalari, aksentologik normalar, fonetik normalar, grammatik normalar, imloviy normalar, yozuv-grafika normalari, uslubiy normalar).

## **6-mavzu. Til va uslub**

Nutq madaniyatining ko‘rinishlari. Turoqlar (troplar) ning ishlatilishi. Tasviriy vositalar-troplar ko‘chma ma’noda ishlatiluvchi so‘z vositasi sifatida. Troplarning turlari (o‘xshatish-epitet, metafora-ko‘chim, metonimiya-boshqacha nom berish, sinekdoxa-narsalar orasidagi munosabat, mubolag‘a va kuchaytirish, allegoriya- kinoya simvol-ko‘chma ramz, ironiya –kulgi, perifraz – gapni boshqacha tuzish, jonlantirish). Figuralar, maxsus stilistik usullar (qaytarish, ellipsis- tushirib kolish, ritorik savol-javob talab etilmaydi, ritorik murojat, xitob, aksomoron- birlashtirish mumkin bo‘lmagan so‘zlarning birlashishi, gradatsiya-zinapoya, antiteza-qarama-qarshilik). Tafakkurning to‘rt qonuni (E’tirof etish qonuni. Qarama-qarshilik qonuni. Inokor qonuni. Yetarli asos qonuni). So‘zlashuv uslubi. Rasmiy ish qog‘ozlar uslubi. Ilmiy uslub. Publistik uslub.

## **7-mavzu. Nutq madaniyatini o‘stirish usullari**

Notiqlar tajribasini o‘rganish. O‘zbek adabiy tilidan foydalanishga ko‘ra gruxlar (O‘zbek adabiy tilida normal gapira oluvchi va yoza oluvchi kishilar. O‘zbek adabiy tilida yoza oluvchi , ammo og‘zaki nutqda adabiy til normalariga to‘liq amal eta olmaydigan kishilar. Rasmiy doiralarda adabiy tilda so‘zlay oluvchi, ammo oddiy so‘zlashuvda sheva bilan adabiy tilning aralashmasidan foydalanuvchi kishilar. Mahalliy shevada so‘zlashuvchi kishilar). Adabiy tilni egallashning yo‘llari ( oilada bolaga ona tilini o‘rgatish. Tilni o‘kitish, o‘rganish orqali egallash. Til va nutqni mustaqil o‘stirish. So‘z ustalariga taqlid qilish. Texnik vositalardan foydalanish.) Nutq malakasi va ko‘nikmasini shakllantirish. Yozma nutqni o‘stirish. Leksiya matini tayyorlash. Taqriz, annotatsiya, tezis yozish qoidalari.

## **8-mavzu. Pedagog nutqi va tarbiya**

Pedagogik faoliyat tavsifi (konstruktiv, tashkilotchilik, ilmiy, kommunikativ). Pedagog nutqiga qo'yiladigan talablar (adabiy tilni to'la egallash va adabiy til normasiga amal qilish, talaffuz, so'z vositalari va uslubiy figuralardan to'g'ri foydalanish, nutq texnikasiga amal qilish, aniq va ravon gapirishga o'rganish). Pedagog nutqi aloqa vositasi. Pedagogik mahorat tushunchaschi. Tarbiyalanuvchilarning individual xususiyatlarini o'rganish.

<b>3</b>	<b>O'quv kursi bo'yicha ma'ruza va amaliy mashg'ulotlarda o'qitish texnologiyalarini ishlab chiqishning konseptual asoslari</b>
----------	---

O'zbekiston o'z istiqloq va taraqqiyot yo'lidan rivojlanib, xalqaro maydonda o'zining munosib o'rnini topmoqda. Davlatimizning mustaqil taraqqiyot yo'lini ta'minlash uchun ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy va ma'rifiy sohalarida chuqur islohotlar amalga oshirilmoqda. Jamiyat va inson manfaatiga qaratilgan bu islohotlarning samarasi bevosita ta'lim tizimida tayyorlanayotgan mutaxassis kadrlarning salohiyatiga bog'liqdir. Shu bois mustaqillikning dastlabki kunlaridan boshlab sifatli kadrlar tayyorlashga qodir milliy asosga qurilgan va jahondagi ilg'or davlatlar ta'limi taraqqiyoti tajribalariga tayanadigan kadrlar tayyorlash tizimini yaratish asosiy vazifalaridan biriga aylandi. 1997 yilda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" milliy ta'lim taraqqiyoti va milliy kadrlar tayyorlash tizimi istiqbollari belgilovchi hujjat sifatida bu sohada ishlarini rivojlantirishda yana bir tarixiy davr boshlanishiga zamin yaratdi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va hukumati axborot texnologiyalari dasturiy vositalari, ma'lumotlarning axborot bazalari, multimedia asosida ta'lim jarayonini axborotlashtirish, uzluksiz ta'lim tizimini axborot tarmog'i bilan ta'minlash asosida jahon andozalariga mos keladigan kadrlar tayyorlash masalalariga e'tiborni susaytirmay kelmoqda.

Kadrlar tayyorlash Milliy dasturining ikkinchi bosqichi ta'lim jarayonidagi sifat ko'rsatkichlarini yaxshilash, ya'ni jahon andozalariga mos raqobatbardosh, yuqori saviyaga ega bo'lgan mutaxassislar tayyorlashdir. Ushbu murakkab muammolarni yechimini topib ularni amalda keng qo'llash oliy ta'lim tizimi xodimlari oldiga juda katta vazifalar belgilaydi. Bunda aniq vazifalar sifatida bevosita o'quv jarayonini yaxshilash, o'quv dasturlarini yanada takomillashtirish, o'qitishning zamonaviy pedagogik texnologiyalarini amalga joriy qilish, texnik vositalaridan keng foydalanish va shu asosda masofadan o'qitishni keng joriy qilishdan iboratdir.

Ta'lim sifati va usuliga qarab bilim hosil bo'ladi. Bu o'qituvchining mahoratiningina emas, balki tinglovchining istak-xohishi, qobiliyati va bilim darajasini xham belgilaydi. Ta'lim uzoq davom etadigan jarayondir. Bilim esa ta'limning uzluksizligi vositasida beriladigan mavxum tushunchaga ega bo'lgan hodisadir. Bilim xususiylikka ega bo'lsa, ta'lim umumiylikka egadir. Ta'lim barcha uchun bir xilda davom etadigan jarayon. Bilim ob'ektiv borliqdagi voqea-hodisalarning in'ikosi natijasida inson miyasidagi mushohadalar va tasavvurlar natijasida hosil bo'ladigan tushunchalar yig'indisi sifatida namoyon bo'ladi. Ta'limdagi sifat uni berishda ishtirok

etadigan kishilar sifati bilan belgilansa, bilim individuallikka ega bo'ladi. Ta'limni amalga oshiradigan yoki dars beradigan kishilarning saviyasi turlicha bo'lishi mumkin. Lekin guruhdagi talabalarga beriladigan ta'lim bir xildir. O'qituvchi bilim emas, balki ta'lim beradi. Talaba esa ana shu ta'lim jarayonida bilimga ega bo'ladi. Buning uchun u mustaqil o'qiydi, tayyorlanadi, mushoxada qiladi, tasavvurlarga ega bo'ladi, eshitganlari va o'qiganlarini sintez qiladi. Natijada bilimga ega bo'ladi. O'quv jarayoni bilan bog'lik ta'lim sifatini belgilovchi holatlar quyidagilar: yuqori ilmiy-pedagogik darajada dars berish, muammoli ma'ruzalar o'qish, darslarni savol-javob tarzida qiziqarli tashkil qilish, ilgor pedagogik texnologiyalardan va multimedia qo'llanmalardan foydalanish, tinglovchilarni undaydigan, o'ylantiradigan muammolarni ular oldiga qo'yish, talabchanlik, tinglovchilar bilan individual ishlash, ijodkorlikka undash, erkin muloqot yuritishga, ijodiy fikrlashga o'rgatish, ilmiy izlanishga jalb qilish va boshqa tadbirlar ta'lim ustivorligini ta'minlaydi. Aytilganlardan kelib chiqqan holda «Notiqlik san'ati va nutq madaniyati» o'quv kursi bo'yicha ta'lim texnologiyasini loyixalashtirishdagi asosiy konseptual yondoshuvlarni keltiramiz:

*Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim.* Bu ta'lim o'z mohiyatiga ko'ra ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilarini to'laqonli rivojlanishlarini ko'zda tutadi. Bu esa ta'limni loyihalashtirilayotganda, albatta, ma'lum bir ta'lim oluvchining shaxsini emas, avvalo, kelgusidagi mutaxassislik faoliyati bilan bog'lik o'qish maqsadlaridan kelib chiqqan holda yondoshilishni nazarda tutadi.

*Tizimli yondoshuv.* Ta'lim texnologiyasi tizimning barcha belgilarini o'zida mujassam etmog'i lozim: jaryonning mantiqiyliigi, uning barcha bo'g'inlarini o'zaro bog'langanligi, yaxlitligi.

*Faoliyatga yo'naltirilgan yondoshuv.* Shaxsning jarayonli sifatlarini shakllantirishga, ta'lim oluvchining faoliyatni aktivlashtirish va intensivlashtirish, o'quv jaryonida uning barcha qobiliyati va imkoniyatlari, tashabbuskorligini ochishga yo'naltirilgan ta'limni ifodalaydi.

*Dialogik yondoshuv.* Bu yondoshuv O'quv jarayoni ishtirokchilarning psixologik birligi va o'zaro munosabatlarini yaratish zaruriyatini bildiradi. Uning natijasida shaxsning o'z-o'zini faollashtirish va ko'rsata olishi kabi ijodiy faoliyati kuchayadi.

*X,amkorlikdagi ta'limni tashkil etish.* Demokratilik, tenglik, ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchi o'rtasidagi sub'ektiv munosabatlarda hamkorlikni, maqsad va faoliyat mazmunini shakllantirishda va erishilgan natijalarni baholashda birgalikda ishlashni joriy etishga e'tiborni karatish zarurligini bildiradi.

*Muammoli ta'lim.* Ta'lim mazmunini muammoli tarzda taqdim qilish orkali ta'lim oluvchi faoliyatini aktivlashtirish usullaridan biri. Bunda ilmiy bilimni ob'ektiv qarama-qarshiligi va uni xal etish usullarini, dialektik mushoxadani shakllantirish va rivojlantirishni, amaliy faoliyatga ularni ijodiy tarzda qo'llashni mustaqil ijodiy faoliyati ta'minlanadi.

*Axborotni takdim qilishnshg zamonaviy vositalari va usullarini qo'lyaash - yangi kompyuter va axborot texnologiyalarini o'quv jarayoniga qo'llash.*

Keltirilgan konseptual yo'riqlarga asoslangan holda, «Notiqlik san'ati va nutq madaniyati» kursining maqsadi, tuzilmasi, o'quv axborotining mazmuni va xajmidan

kelib chiqqan holda, ma'lum sharoit va o'quv rejasida o'rnatilgan vaqt oralig'ida o'qitishni, kommunikatsiyani, axborotni va ularni birgalikda boshqarishni kafolatlaydigan usullari va vositalari tanlovi amalga oshirildi.

*Uqitishning usullari va texnikasi.* Ma'ruza (kirish, mavzuni vizuallashtirish), muammoviy usul, keys-stadi, pinbord, paradokslar va loyihalar, amaliy ishlash usuli.

*Uqitishni tashkil etish shakllari;* dialog, polilog, muloqot hamkorlik va o'zaro o'rganishga asoslangan frontal, kollektiv va gurux.

*Uqitish vositalari* o'qitishning an'anaviy shakllari (darslik, ma'ruza matni) bilan bir qatorda - kompyuter va axborot texnologiyalari.

*Kommunikatsiya usullari:* tinglovchilar bilan operativ teskari aloqaga asoslangan bevosita o'zaro munosabatlar.

*Teskari aloqa usullari va vositalari:* kuzatish, blits-surov, oraliq, joriy va yakunlovchi nazorat natijalarini taxlili asosida o'qitish diagnostikasi.

*Boshqarish usullari va vositalari.* o'quv mashg'uloti bosqichlarini belgilab beruvchi texnologik karta ko'rinishidagi o'quv mashg'ulotlarini rejalashtirish, qo'yilgan maqsadga erishishda o'qituvchi va tinglovchining birgalikdagi harakati, nafaqat auditoriya mashg'ulotlari, balki auditoriyadan tashqari mustaqil ishlarning nazorati.

*Monitoring va baholash:* o'quv mashg'ulotida ham butun kurs davomida ham o'qitishning natijalarini rejali tarzda kuzatib borish. Kurs oxirida tinglovchilarning bilimlari baxolanadi.

---

---

**«NOTIQLIK SAN'ATI VA NUTQ MADANIYATI» O'QUV  
PREDMETIDAN MA'RUZA VA SEMINAR DARSLARIDA O'QITISH  
TEXNOLOGIYALARI**

---

---

<b>1 mavzu</b>	<b>Notiqlik san'ati va nutq madaniyatiga kursiga kirish</b>
----------------	---

<i>Talabalar soni:</i> 25	<i>Vaqt:</i> -2 soat
<i>Dars shakli</i>	Tematik-kirish ma'ruza
<i>Ma'ruza rejasi</i>	1. Notiqlik san'atining turlari va ahamiyati. 2. Notiqlik san'atining asosiy qoidalari. 3. Nutq madaniyati haqida tushuncha.
<i>Dars maqsadi :</i> Kurs haqida umumiy tushuncha berish, notiqlik san'ati va nutq madaniyati haqidagi bilimlarni shakllantirish.	

<p><i>Pedagog vazifalari:</i></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>•kursning maqsadi vazifalari va talabalarga qo‘yiladigan talablarining mohiyatini ochib berish;</li> <li>•notiqlik san’atining turlarini tahlil yo‘l bilan bayon etadi va ahamiyatini ochib beradi;</li> <li>•notiqlik san’atining asosiy qoidalari-ni mohiyatini ochib berish;</li> <li>•«nutq madaniyati» tushunchasini tahlil etadi.</li> </ul>	<p><i>O‘quv natijalari:</i></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>•kursning maqsad va vazifalarini bayon etadi;</li> <li>• talabalar notiqlik san’atining ahamiyatini tahlil etadi va uning turlarini sanab beradi;</li> <li>•notiqlik san’atining asosiy qoidalarni bayon etadi va mohiyatini ochib beradi;</li> <li>• nutq madaniyatini tarbiyalashning ahamiyatini ochib beradi;</li> <li>• «nutq madaniyati» tushunchasiga izoh beradi.</li> </ul>
<i>O‘qitishning usul, texnikasi:</i>	Ma’ruza, suxbat, juft bo‘lib muhokama qil va fikr almash.,organayzer.
<i>O‘qitish vositalari:</i>	Ma’ruza matni, tarqatma materiallar,kompyuter.
<i>O‘qitish shakli:</i>	Frontal, juftlikda ishlash.
<i>O‘qitish shart – sharoitlari:</i>	Texnik vositalarni qo‘llashga mo‘ljallangan auditoriya.
<i>Monitoring va baholash:</i>	Og‘zaki so‘roq, savol-javob, tahlil natijalari.

### **Ma’ruza darsiga texnologik karta**

Faoliyat bosqichlari	Faoliyat mazmuni	
	pedagog	talaba
1-bosqich. Kirish (15 daqiqa)	1.1.Kurs nomini e’lon qiladi va unga qisqacha harakteristika beradi. Kursning hajmi va o‘ziga xos xususiyatlari haqida fikr yuritadi. Kurs davomida o‘rganish lozim bo‘lgan mavzularni sanab o‘tadi va semianr hamda laborotoriya davomida bajariladigan ishning mohiyati va ahamiyatini ochib beradi. Kurs uchun va har bir	1.1.Eshitadilar va kerakli ma’lumotlarni Yozib oladilar.

	<p>mavzu uchun belgilangan reyting ballari bilan tanishtiradi (1-ilova ).</p> <p>Kurs davomida foydalaniladigan adabiyotlar ro‘yhati bilan tanishtiradi.</p> <p>1.2. Birinchi mavzuni e‘lon qiladi, darsning maqsadi va talabalar erishishi lozim bo‘lgan natijalarni bayon etadi.</p> <p>Faollashtiruvchi savollar bilan talabalarga murojat etadi (2-ilova).</p>	<p>1.2.Savollarga javob beradilar.</p>
<p>2-bosqich. Asosiy bosqich (55 daqiqa)</p>	<p>2.1.Jamiyat va har bir inson hayotida notiqlik san’atining ahamiyatini tahlil etar ekan bu borada talabalar bilan fikr almashadi.Notiqlik san’atining turlari bilan tanishtiradi.</p> <p>Ektranda jadval chiqariladi va juft bo‘lib muhokama qilish va notiqlik turlariga izox berishni taklif etadi (3-ilova).</p> <p>Javoblarni umumlashtiradi,to‘g‘rilaydi va xulosa qiladi.</p> <p>2.3.Notiqlik san’atining umuiy qoidalari haqidagi axborotni bayon etadi.</p> <p>Faollashtiruvchi savollar bilan murojat etadi:</p> <p>1.Notiq uchun eng muhim xususiyatni ayting.</p> <p>2.Notiq bo‘lish uchun qanday malaka va ko‘nikmalar talab etiladi?</p> <p>Notiqlikning asosiy qoidalarini organayzerga yozing va ahamiyatini tahlil qiling. Tarqatma kartochna asosida ( 4-ilova) .</p> <p>Bajarilgan vazifalar tekshiriladi va umumiy xulosalar chiqariladi.</p> <p>2.3. Nutq va til tushunchalarini tahlil etadi. Nutqning aniqligi, ravonligi va, boyligi, mantiqiyligi. Ifodalanishi kabi fazilatlariga to‘xtalib o‘tadi.</p> <p>Savol bilan murojat etadi : « Nutq» va « til» tushunchalarning farqini aytib bering.</p> <p>Javoblarni umumlashtiradi va xulosalaydi.</p>	<p>2.1.Talaba o‘z fikrini bayon etadi. Talabalar juft bo‘lib muhokama qiladi, javob beradi.</p> <p>2.3.Talabalar mulohazalarini bildiradilar. Juft bo‘lib qoidalar-ni yozib chiqadilar 2.3.Mulohaza qiladilar</p>
<p>3-bosqich Yakuniy. ( 10 daqiqa)</p>	<p>3.1. Mavzu bo‘yicha yakuniy xulosalarni aytib o‘tadi.</p> <p>3.2. Talabalarning dars davomidagi faoliyatini tahlil etadi va baholaydi.</p> <p>3.3. Mustaqil ishlash uchun vazifa beradi (5-ilova).</p>	<p>3.1.Savol beradilar.</p> <p>3.2.Yozadilar.O‘UM</p>

Nazorat turlari bo'yicha ballarning taqsimlanishi ( % da)			
Jami	Joriy nazorat	Oraliq nazorat	Yakuniy nazorat
100%	45%	40%	15%
40 ball	45 ball	40 ball	15 ball

O'zlashtirish ko'rsatkichlari:

86%-100% / 86-100 ball « a'lo»

85%- 71% / 85- 71 ball «yaxshi»

56%-70% / 56- 70 ball « qoniqarli»

Ma'ruza, seminar va trening darslarida to'plash mumkin bo'lgan ballar:

Ma'ruza darslarida – 1 balldan kurs davomida 10 ball to'playadi.

Seminar darslarida – 3,3 balldan kurs davomida 26,4 ball to'playadi.

3,3 – 2,83 ball- a'lo.

2,8 - 2,32 ball – yaxshi.

2,31 - 1,8 ball - qoniqarli.

2-ilova ( 1.1.)

### O'quv topshiriqlar


#### Faollashtiruvchi savollar:

1. Notiqlik tushunchasiga kim izoh bera oladi?
2. Notiqlikni san'at deb atash mumkinmi?
3. Nutq madaniyati tushunchasiga izoh bera olasizmi?
4. Nima uchun nutq madaniyatiga e'tibor berish lozim?
5. Siz o'zingizni nutq madaniyatiga ega shaxs deb hisoblaysizmi?

**Notiqlik turlariga izoh bering**

Notiqlik turlari	Maqsadi va vazifalari.
1.Ijtimoiy-siyosiy	
2.Sud notiqligi.	
3.Akademik notiqlik.	
4.Diplomat notiqligi.	
5.Harbiy notiqlik.	
6.Marosim notiqligi.	

4-ilova (1.1.)

**Notiqlikning asosiy qoidalari**


5-ilova (1.1.)

**Nazorat savollari:**

1. Notiqlik san'ati va nutq madaniyati kursining tuzilishi, maqsadi va vazifalariga izoh bering.
2. Notiqlikning turlarini sanab bering va izohlang.
3. Nutq madaniyatini tarbiyalashning zaruratini tahlil eting.
4. Notiqlik san'atining asosiy qoidalarini sxemaga joylashtiring.

**Notiqlikning asosiy qoidalari**





## 1.2. Amaliy mashg‘ulot darsini olib borish texnologiyasi

<i>Talabalar soni: 25</i>	<i>Vaqt- 2 soat</i>
<i>Dars shakli</i>	Insert va sinkveyn texnologiyasiga asoslangan amaliyot darsi.
<i>Mashg‘ulot rejasi:</i>	1. Notiqlik san’atining turlari va qoidalarini tahlil etish. 2. Nutq va til tushunchalariga izoh berish. 3. Tanlangan mavzuga hikoya yozish.
<i>Dars maqsadi:</i> Idrok etilgan bilimlarni mustahkamlash va nutq madaniyatini o‘stirish.	
<i>Pedagog vazifasi:</i>	<i>O‘quv natijalari:</i>
<ul style="list-style-type: none"> <li>• egallangan bilimlarni mustahkamlaydi;</li> <li>• mustaqil ishni tashkil etadi;</li> <li>• mavzu tanlaydi, hikoya tuzishni tashkil etadi.</li> </ul>	<ul style="list-style-type: none"> <li>• notiqlik san’atining turlari va qoidalarini sanab beradi va tahlil qiladi;</li> <li>• nutq va til tushunchalariga sinkveyn tuzadi;</li> <li>• tanlangan mavzuga hikoya tuza oladilar.</li> </ul>
<i>Usul va texnikalar</i>	Insert, sinkveyn, organayzer.
<i>O‘qitish vositalari:</i>	O‘quv materiallari, tarqatma materiallar,

	Qog'oz-A32, doska, marker,skotch.
<i>O'qitishning shakli</i>	Yakka, jamoa, guruhda ishlash.
<i>O'qitish shart-sharoitlari:</i>	Guruhda ishlashga mo'ljallangan auditoriya.
<i>Monitoring va baholash</i>	Og'zaki so'rov, organayzerni to'ldirish,

### Amaliy mashg'ulot darsiga texnologik karta

Faoliyat bosqichlari	Faoliyat mazmuni	
	pedagog	talaba
1-bosqich. Darsga kirish (10 daqiqa)	1.1 Talabalarning darsga tayyorgarligini tekshiradi. 1.2.Mustaqil tayyorgarlik uchun berilgan savollarni aniqlaydi.	1.1.Javob beradilar.
2-bosqich. Asosiy bosqich ( 60 daqiqa)	2.1. Mavzu bo'yicha o'rganilgan savollarni o'rtaga tashlaydi.(1- ilova). 2.2. Sinkveyn usulidan foydalangan holda «nutq» va «til» tushunchalarini tahlil etish taklif etiladi sinkveyn asosida (2-ilova ). Bajarilgan vazifalar tekshirib, umumiy xulosa qilinadi. 2.3. Talabalar guruhlariga ajratiladi va tanlangan mavzuga hikoya tuzish vazifasi beriladi. Har bir guruhga baholash me'zonlari belgilangan tarqatma material tarqatiladi (3-ilova) Hikoyaning taqdimotini e'lon qiladi.  Guruhlar prezintatsiyasi tugagach egallangan o'rinlar e'lon qilinadi.	2.1.Talaba o'z fikrini bayon etadi. 2.2.Juftlikda tushunchalarni tahlil etadilar va natijalarni o'qib beradilar.  2.3.Guruhlarda ishlaydilar va taqdimot tayyorlaydilar Eshittadilar va baho beradilar.
3-bosqich. Yakuniy (10 daqiqa)	3.1. Mavzu bo'yicha umumiy xulosalarni bayon etadi. 3.2.Dars davomida bajarilgan ishlarning natijalarini izohlaydi va talabalarning faoliyatini baholaydi. 3.3.Keyingi mavzuni mustaqil o'qib chiqish va insert usulidan foydalangan holda belgilab chiqishni tavsiya etadi.(4- ilova )	3.1.Tinglaydilar va savol beradilar.  O'UM ga qarang

<b>Faollashtiruvchi savollar:</b>
1. Notiqlik san'ati tushunchasiga izox.
2. Notiqlik san'atining qanday qoidalarini bilasiz?
3. Nutq madaniyati tushunchasini sharxlang.
4. Til va nutq boyligini tushuntirib bering.
5. Nutq madaniyati fanining maqsadi qanday?
6. Nutq madaniyati fanining vazifalari nimalardan iborat?
7. Til tushunchasiga izox bering.
8. Nutqni o'stirishni ahamiyati nimada?

«Nutq» va «Til» tushunchalarini sinkveyn usuli asosida tahlil qiling.

2-ilova( 1.2.)

<b>Sinkveynga tavsif</b>
<p>Sinkveyn- besh qatordan iborat o'ziga xos, qofiyasiz she'r bo'lib, unda o'rganilayotgan tushuncha to'g'risidagi axborot yig'ilgan holda, o'quvchi so'zi bilan turli variantlarda va turli nuqtai nazar orqali ifodalanadi. Sinkveyn tuzish murakkab g'oya, sezgi va hissiyotlarni bir nechagina so'zlar bilan ifodalash uchun muhim bo'lgan malakadir. Sinkveyn tuzish jarayoni mavzuni yaxshiroq anglashga yordam beradi.</p>

<b>Sinkveyn tuzish qoidasi:</b>
1. Birinchi qatorda mavzu ( topshiriq) bir so'z bilan ifodalanadi (odatda ot bilan).
2. Ikkinchi qatorda mavzu ikkita sifat bilan ifodalanadi.
3. Uchinchi qatorda mavzu hatti-harakatni bildiruvchi so'z bilan ifodalandi.
4. To'rtinchi qatorda mavzuga nisbatan munosabatni anglatuvchi va to'rtta so'zdan iborat bo'lgan fikr ( sezgi) yoziladi.
5. Oxirgi qatorga mavzu mohiyatini takrorlaydigan, ma'nosi unga yaqin bo'lgan bita so'z yoziladi.
Namuna;

1. topshiriq.
2. bir ma'noli o'lchanuvchi.
3. yakuniy natijani ifodalaydi.
4. o'quvchiga maqsadni tushunishga yordam beradi.
5. natija.

3-ilova (1.2.)

**Guruhlarda hikoya tuzish vazifasini baholash  
me'zonlarini aks ettiruvchi jadval.**

Guruhlar	Baholash me'zonlari				
	Voqeani jozi- bador bayon etish.	Fikrni aniq va ravon bayon etish	So'z boyli- gi.	Manti- qiy bog'lanish-	Umu- miy ball
1- guruh					
2-guruh					
3-guruh					
4-guruh					

Har bir me'zon uchun 3 dan 5 gacha ball qo'yish mumkin.  
Eng yuqori umumiy ball 20.

**Guruhlarning o'rtacha ballarini va o'rnini aniqlash jadvali.**

Guruh	1	2	3	4	Umu- miy ball	Bo'lin- gan miq- dor	O'rin
1	-						
2		-					
3			-				
4				-			

**Insert usulida ishlash qoidalari.**

1.Mavzuni o‘qing va quyidagi tizim asosida belgilab chiqing.:

V- avvalgi tasavvurlariga mos.

- ( minus)- mening tasavvurlarimga mos kelmadi.

+ ( plyus) – men uchun bu yangi axborot.

? – mazmuni men uchun tushunarsiz.

Natijani quyidagi jadvalga tushuring

<b>2 - Mavzu</b>	<b>Qadimgi Gresiyada notiqlik san’atining rivojlanishi. Rim notiqlik san’ati.</b>
<i>Talabalar soni: 25</i>	<i>Vaqt- 2 soat</i>
<i>Dars shakli</i>	Konferensiya asosida tashkil etilgan ma’ruza
<i>Ma’ruza rejasi</i>	1.Qadimgi Gresiyada notiqlik san’atining rivojlanish tarixi. 2.Aristotel, Demosfen notiqligi. 3. Qadimgi Rim notiqligining o‘ziga xos jihatlari.
<i>Dars maqsadi:</i> Qadimgi Gresiya va Rimda notiqlik san’atining vujudga kelish tarixi haqidagi bilimlarni shakllantirish.	
<i>Pedagog vazifalari:</i> • qadimgi Gresiyada notiqlik san’atining rivojlanish shart – sharoitlarini tahlil qiladi va baho beradi; •Aristotel va Demosfen notiqligining xususiyatlarini ko‘rsatib beradi; • Rim notiqlik san’atining o‘ziga xos xususiyatlarini ochib beradi.	<i>O‘quv natijalari:</i> • qadimgi Gresiyada notiqlik san’atining rivojlanishiga turtki bo‘lgan omillarni sanab beradi va tahlil qiladi;  • Aristotel va Demosfenning notiqlik san’atining rivojiga qo‘shgan hissasini tahlil qiladi va baho beradi;  • Rim notiqlik san’atini rivojini o‘ziga xos xususiyatlarini sanab beradi.
<i>Usul va texnikalar</i>	Konferensiya-ma’ruza, baxs-munozara, taqdimot.
<i>O‘qitish vositalari:</i>	Ma’ruza qilish uchun tayyorlangan dokladlar va ularga tegishli bo‘lgan ko‘rgazmali materiallar, proyektor.

<i>O'qitishning shakl</i>	Jamoada ishlash.
<i>O'qitish shart-sharoilari</i>	Proyektor mavjud bo'lgan auditoriya.
<i>Monitoring va baholash</i>	Savol-javob, taqdimot.

Faoliyat bosqichlari	Faoliyat mazmuni	
	Pedagog	talaba
ayyorgarlik bosqichi.	<p>1.Keyingi ma'ruza uchun oldindan tuzilgan mavzularning nomlarini talabalar diqqatiga havola qiladi va har bir mavzuning tahminiy rejasi bilan tanishtiradi (1-ilova)</p> <p>Mavzuning kelajakdagi pedagogik faoliyati uchun ahamiyatini tushuntiradi.</p> <p>Ma'ruza-konferensiyasiga tayyorlanish uchun kerak bo'lgan adabiyotlar ro'yhatini taqdim etadi.</p> <p>Mavzuning har bir rejasi bo'yicha ma'ruzachilarni hamda resenzent va opponentlarni tayinlaydi.</p> <p>Ma'ruzachilarga rejani tuzish va axborotni joylashtirish usullari to'g'risida ma'lumot beradi.</p> <p>Barcha talabalarga mavzu bilan tanishish va ma'ruzachilarga savollar tuzib kelish lozim ekanligini uqtiradi.</p> <p>Ma'ruzachilarni, resenzentlarni va opponentlarni baholash me'zonlari bilan tanishtiradi (2-ilova).</p> <p>Ma'ruzachilarga mazmun va ko'rgazmali materallar tayyorlash yuzasidan yo'llanma beradi ( 3-ilova)</p>	<p>1.Yozib oladilar.</p> <p>Tinglaydilar</p> <p>Yozib oladilar</p> <p>Mavzuni mohiyati haqida fikr yuritadilar.</p> <p>Rejalashtiradilar.</p> <p>Baholash me'zonlari va reglament bilan tanishadilar.</p> <p>Ma'ruza yozadilar va ko'rgazmali vositalarni tayyorlaydilar.</p>
1-bosqich. Kirish (10 daqiqa)	<p>1.1 Mavzuni , maqsad va erishish lozim bo'lgan o'quv natijalarini e'lon qiladi.</p> <p>Ma'ruzani konferensiya-munozara usulida o'tkazilishini e'lon qiladi.</p>	<p>1.1.Eshitadilar, yozib oladilar,savol beradilar.</p>

	Konferensiya-munozara usulida darsni tashkil etish tartibi bilan tanishtiradi, baholash me'zonlarini va munozara qoidalarini doskaga ilib qo'yadi(4-ilova ).	Tinglaydilar.
2-bosqich. Asosiy. ( 60 daqiqa)	2.1.Ma'ruzachilarning nutqlarini va axborotlarini tinglaydi.  2.2.Ma'ruzachining ma'ruzasini va resenent hamda opponentlarning nutqlarini jamoa bo'lib tahlil etishni tashkllashtiradi: -insert o'sulida to'ldirilgan jadval asosida savol-javobni tashkil etadi; -ma'ruzaning asosiy fikrlariga diqqat qaratadi va savollar bilan murojat etadi; -tinglovchilarning fikr bildirishiga e'tibor qaratadi; -Ma'ruzaning ilmiy izchil tahlilini ta'minlash maqsadida savollar berib boradi. Har bir ma'ruza shunday tartibda davom ettiriladi.	2.1.Ma'ruzachilar o'z ma'ruzalarini talabalar diqqatiga havola etadilar. 2.2.Resenentlar ma'ruzani ilmiy jihatdan tahlil etadilar. Opponentlar ham o'z fikrlarini bayon etadilar. Jamoa bo'lib tahlil etiladi.

Mavzu savollari	V	-	+	?
-----------------	---	---	---	---

3-bosqich. Yakuniy. ( 10 daqiqa)	3.1. Mavzu bo'yicha umumiy xulosalarni bayon etadi. 3.2.Dars davomida bajarilgan ishlarning natijalarini va jamoa faoliyatini baholaydi. 3.3.Uyga vazifa beradi (5- ilova). 3.4.Keyingi mavzuni mustaqil o'qib chiqishni tavsiya etadi va uning rejasi bilan talabalarni tanishtiradi.	Talabalar o'z fikrlarini bildiradilar.  O'UM ga murojat etadilar.
--	---	---

1				
2				
3				
4				

1-ilova (2.1.)

**Konferensiyada ko‘rib chiqish lozim bo‘lgan mavzular.**

1. Qadimgi Gresiyada notiqlik san‘atining rivojlanishiga ta‘sir etuvchi ijtimoiy-tarixiy shart-sharoitlar.

2. Aristotel notiqlik haqida.

3. Demosfen notiqligi.

4. Ko‘xna Rimda notiqlik san‘atining rivoji.

**1-Mavzu: Qadimgi Gresiyada notiqlik san‘atining rivojlanishiga ta‘sir etuvchi ijtimoiy-tarixiy shart-sharoit.**

1. Qadimgi Gresiyadagi siyosiy shart-sharoit.

2. Savdo –sotiq va sud rasmiyatchiligining rivoji.

3. Lisiy notiqligi.

**2-Mavzu: Aristotel notiqlik haqida.**

1. Aristotelning hayoti va ijod yo‘li.

2. «Ritorika» asarining mazmun mohiyati.

3. Notiqqa qo‘yiladigan talablar tizimi.

**3-Mavzu: Demosfen notiqligi.**

1. Demosfenning hayot yo‘li.

2. Demosfen notiqligining o‘ziga xos jihatlari.

**4-Mavzu: Ko‘xna Rimda notiqlik san‘atining rivoji.**

1. Kato notiqlik haqida.

2. Seseronning notiqlik san‘ati va kompozitsiyasi.

2-ilova (2.1.)

**Ko‘rgazmali materiallar**

**«Ritorika» asarining tuzilishi**

1. Нутқ тамайилларнинг таҳлили.

2. Нотик учун зарур бўлган шахсий хусусият ва қобилият.

3. Нотиқида қулланиладиган нутқ техникаси, нутқ усуллари



## «Ritorika» asarida notiqlikning besh asosiy tamoyili

1. Материални танлаш.
2. План, материални жойлаштириш формаси.
3. Материалнинг ўзини хотирлаш ва уни жойлаштириш; нутқ қурилишини тўғирлаш; нотиқнинг нутқ материални ўрганиши.
4. Сўз билан ифодалаш.
5. Нутқни талаффуз қилиш ( тасаввур қилиш ва бошқалар)

### Seseron talablari

1. Нотиқнинг ўзига ишончи мустаҳкам бўлиши керак.
2. Нутқ тўлиқ исботли далилларга эга бўлиши керак.
3. Материални тўплаш тайёргарликнинг асосий босқичи.
4. Материални тўғри жойлаштириш.
5. Ўз нутқи қаратилган соҳани яхши билиш талаб этилади.

### Seseron kompozitsiyasi

1. Кириш
2. Ишнинг моҳиятини баён қилиш.
3. Планнинг кейинги қисмларини ифодалаш.
4. Далиллар (нутқнинг энг муҳим қисми).
5. Асосий мазмунни таъкидлаш.
6. Хулоса (яқун яшаш)

3-ilova (2.1.)

**Ma'ruzachi va munozara qatnashchilarini baholash me'zonlari.**

Baholash me'zonlari ( ballda)	Qatnashuvchilar			
	Ma'ruzachilar ( I.Sh.)			
1.Ma'ruzaning mazmuni -0.1	1	2	3	4
-mantiqan bog'langanligi va izchilligi, nutqning ravonligi-0.2				
2.Kurgazmalilik- 0.2				
Jami: eng yuqori ball: 0.5 ball				
	OPPONENTLAR ( I.Sh)			
1. Ma'ruzani tahlil qilish -0.1				
-ma'ruzaning ijobiy tomonlarini ochib berish- 0.2				
-ma'ruzada yo'l qo'yilgan kamchiliklarni ko'rsatish- 0.2				
Jami eng yuqori ball: 0.5 ball.				
	Resenzentlar va munozara ishtirokchilari			
1.Savollar				
O'rinli savollar-0.2				
-Qo'shimchalar- 0.3				
Jami eng yuqori ball-0.5 ball.				

4-ilova(2.1.)

**Мунозара қоидалари:**

- 1.Қиска аниқ гапир.
2. Узоқ гаприма, бошқалар ҳам ўз фикрини билдирсин.
- 3.Ҳис-хаяжонга берилма, ўйлаб гапир.
- 4.Оппонентнинг ғояларини тушунишга ҳаракат қил.
- 5.Бошқаларнинг фикрини хурмат қил.
- 6.Мавзудан четга чиқма.
- 7.Ўз фикрингни ҳимоя қил.

5-ilova (2.1.)

**Mustaqil ta'lim uchun topshiriq**

1. O'quv kursining maqsadi va vazifalariga kengaytirilgan tavsif yozing.

	Maqsadi	Vazifalari
Mazmuni		

--	--	--

2. «Til » va «Nutq» tushunchalariga tavsif bering.
3. Notiqlik san'atidagi umumiy qoidalariga izox bering.

**Нотиқлик санъатининг умумий қоидалари:**

1. Нотиқ аудитория билан мустақкам алоқада бўлиши шарт.
2. Нотиқ ўзининг субъектив фазилатларини ҳисобга олиши шарт.
3. Нотиқ объектив шарт-шароитларни ҳисобга олиши лозим.
4. Нутқ маданиятига, малакасига эга бўлиши керак.
5. Маданий савияси юксак бўлиши ва масалани чуқур билиши талаб этилади.

**2.2. Amaliy mashg'ulot darsini tashkil etish texnologiyasi.**

<i>Talabalar soni: 25</i>	<i>Vaqt- 2 soat</i>
<i>Dars shakli</i>	Bilimlarni chuqurlashtirish va mustahkamlashga asoslangan amaliy mashg'ulot darsi.
<i>Mashg'ulot rejasi</i>	1. Qadimgi Gresiyada notiqlik san'atining rivojlanish tarixi. 2. Aristotel, Demosfen notiqligi. 3. Qadimgi Rim notiqligining o'ziga xos jihatlari.
<i>Dars maqsadi:</i> Qadimgi Gresiya va Rimda notiqlik san'atining vujudga kelish tarixi haqidagi bilimlarni chuqurlashtirish.	
<i>Pedagog vazifalari:</i>  • mavzuni o'rganishga bo'lgan ehtiyojni uyg'otish va talaba-	<i>O'quv natijalari:</i>  • talabalar Qadimgi Gresiyada va Rimda notiqlik san'atining vujudga kelish shart-sharoitlarini tahlil qiladi;

larning o‘zaro savol-javobni tashkil etish; • birlamchi manbaalar bilan ishlashni tashkil etadi; • Rim notiqlik san’atining rivojlanish tarixini tahlil etishni tashkil etadi.	<ul style="list-style-type: none"> <li>• Aristotel va Demosfenning notiqlik san’atiga bag‘ishlangan asarlardan parchalar o‘qiydilar;</li> <li>• Rim notiqlik san’atini rivojini o‘ziga xos xususiyatlarini sanab beradi va izohlaydi.</li> </ul>
<i>Usul va texnikalar</i>	Savol- javob, muhokama, kichik guruhlar, hamkorlikda o‘qitish, diagramma «Venna».
<i>O‘qitish vositalari</i>	Birlamchi manbaalardan parchalar,marker, qog‘oz,doska.
<i>O‘qitishning shakl</i>	Jamoa va kichik guruhlarda ishlash.
<i>O‘qitish shart-sharoilari</i>	Kichik guruhlarda ishlashga mo‘ljallangan xona.
<i>Monitoring va baholash</i>	Og‘zaki javob, harakteristika berish, topshiriq.

### Seminar mashg‘ulotiga texnologik karta.

Faoliyat bosqichlari.	Faoliyat mazmuni	
	Pedagog	talaba
1-bosqich. Kirish (10daqiqqa)	1.1 Mavzuni , maqsad va erishish lozim bo‘lgan o‘quv natijalarni e‘lon qiladi. 1.2.Ma‘ruzani kichik guruhlar texnologiyasidan foydalangan holda tashkil etilishini e‘lon qiladi. 1.3. Guruhlarda ishlash tartib –qoidalari bilan tanishtiradi.	1.1.Eshitadilar, yozib oladilar,savol beradilar. 1.2.Tinglaydilar
2-bosqich. Asosiy (60daqiqqa)	2.1.Talabalarni to‘rtta kichik guruhlarga ajratadi . Har bir guruh rejaning birinchi savoli yuzasidan bittadan savol tayyorlashi talab etiladi. Har bir guruh o‘z savolini o‘rtaga tashlaydi va boshqa guruhlar javob beradilar.	2.1.Guruhlarga bo‘linadilar. Savol tayyorlaydilar. Javob beradilar. 2.2.Talabalar

	<p>Javoblar tahlil etiladi va xulosalanadi.</p> <p>2.2.Talabalarga Aristotelning asarlaridan lavhalar tarqatiladi.</p> <p>Har bir guruh o‘zi o‘qigan lavhani mohiyatini taqdimot orqali ochib beradi ( 1-ilova).</p> <p>Asosiy fikrlarni ko‘rsatadi va xulosalaydi.</p> <p>2.3.Rim notiqlik san‘atiga tavsif berishni tashkil etadi (2-ilova).</p> <p>Taqdimotni uyushtiradi.</p> <p>2.4.Kadimgi Gresiya va Rim notiqlik san‘atini taqqoslash hamda o‘xshash va farqli tomonlarini «Venna» diagrammasidan foydalangan holda aniqlashni taklif qiladi ( 3-ilova).</p> <p>Faoliyat natijalari tekshiriladi va to‘gri javoblar umumlashtiriladi.</p>	<p>lavhalarni o‘qib chiqadilar va taqdimot tayyorlanadi.</p> <p>2.3.Har bir guruh harakteristika yozadi Taqdimot qiladi.</p> <p>2.4.Diagramma asosida faoliyat yuritadi va natijani bayon etadi.</p>
3-bosqich Yakuniy. ( 10 daq.)	<p>3.1. Mavzu bo‘yicha umumiy xulosalarni bayon etadi.</p> <p>3.2.Dars davomida bajarilgan ishlarning natijalarini va guruhlar faoliyatini baholaydi.</p> <p>3.3.Mustaqil ta’lim uchun vazifa ( 4-ilova).</p> <p>3.4.Keyingi mavzuni mustaqil o‘qib chiqishni tavsiya etadi va uning rejasi bilan talabalarni tanishtiradi (ma’ruza matnlari-34-45 betlar).</p>	<p>3.1.Talabalar o‘z fikrlarini bildiradilar.</p> <p>O‘UM ga qarang.</p>

1-ilova (2.2)

### **Taqdimotni baholash me‘zonlari.**

- 1.Mantiqiy o‘zaro bog‘liqlik va izchillik- 1ball.
  2. Nutqning ravonligi va aniqligi- 1
  - 3.Adabiy til normalariga amal qilish- 1
- Jami: 3 ball.

2-ilova(2.2.)


### **Rim notiqlik san‘atiga tavsifnoma**

Turlari	Vazifalari	Xususiyatlar
		i


--	--	--

3-ilova( 2.2.)

**Diagramma «Venna».**



**«Venna» diagrammasi bilan ishlash ketma-ketligi.**



**О‘қув топшириғи**

Қадимги Греция ва Рим нотиклик санъатини «ВЕННА» диаграмаси асосида таққосланг. Фарқли жиҳатларини -X қисмига ва ўхшаш жиҳатларини –XX қисмига ёзиб чиқинг.

4-ilova ( 2.2.)

**Mustaqil ta’lim uchun vazifa**

1.«Mening talabalik yillarim» mavzusida qisqa insho yozish.

**Mustaqil ishga qo‘yiladigan talablar**

- 1.So‘z boyligini namoyon etish.
- 2.Mantiqiy bog‘lanishlar va izchillikni ta’minlash.
- 3.Ssenariyning qiziqarli bo‘lishi.

<b>3-Mavzu</b>	<b>Qadimgi sharqda notiqlik san’atining rivojlanish tarixi.</b>
----------------	---

(ma’ruza 2 soat, seminar 2 soat)  
**ma’ruza darsining texnologiyasi.**

<i>Talabalar soni: 25</i>	<i>Vaqt- 2 soat.</i>
<i>Dars shakli</i>	Hamkorlikda o‘qitish texnologiyasiga asoslangan ma’ruza.
<i>Ma’ruza rejasi</i>	1.Markaziy Osiyoda voizlik san’ati. 2.Abu Nasr Farobiy, Abu Ali ibn Sino nutq haqida. 3.Qobusnomada suxandonlik ilmi haqida.
<i>Dars maqsadi:</i> Qadimgi sharqda notiqlik san’atining rivojlanish tarixi haqida talabalarda tushuncha hosil qilish.	
<i>Pedagog vazifalari:</i>	<i>O‘quv natijalari</i>

<ul style="list-style-type: none"> <li>• markaziy Osiyoda voizlik san'atining rivojlanish tarixini bayon etadi;</li> <li>• A.N.Farobiy va A.Sinoning nutq haqidagi fikrlarini mohiyatini ochib beradi;</li> <li>• qobusnomada suxandonlik haqida bildirilgan fikrlarni tahlil qiladi.</li> </ul>	<ul style="list-style-type: none"> <li>• voizlik san'atininguch shakli va turlarini sanab beradi va izoh beradi;</li> <li>• A.N.Farobiy va A.A.ibn Sinoning notiqlik san'atiga qo'shgan hissasini tahlil qiladi;</li> <li>• suhandonlik qoidalarini sanab beradi.</li> </ul>
<i>Usullar va texnikalar</i>	Ma'ruza, muhokama, zigzag.
<i>O'qitish vositalari</i>	Tarqatma materiallar, qog'oz, marker, skotch, doska
<i>O'qitishning shakli</i>	Jamoa , kichik guruhlar.
<i>O'qitish shart-sharoilari</i>	Kichik guruhlarda ishlashga mo'ljallangan xona.
<i>Monitoring va baholash</i>	Og'zaki javob, taqdimot, topshiriq.

### Ma'ruza darsiga texnologik karta.

Faoliyat bosqichlari	Faoliyat mazmuni	
	pedagog	talaba
1-bosqich. Kirish (10 daqiqa)	1.1 Mavzuni, maqsad va erishish lozim bo'lgan o'quv natijalarni e'lon qiladi. 1.2.Ma'ruzani hamkorlikda o'qitish texnologiyasidan ( zigzag) foydalangan holda tashkil etilishini e'lon qiladi. 1.3. Guruhlarda ishlash tartib –qoidalari bilan tanishtiradi ( 1-ilova).	1.1.Eshitadilar, yozib oladilar, savol beradilar.
2-bosqich. Asosiy (60 daqiqa)	2.1.Talabalarni to'rtta kichik guruhlariga ajratadi. Har bir guruhga ma'ruzaning biror savoliga tegishli bo'lgan ma'ruza matnlar tarqatiladi, va	2.1.Guruhlariga bo'linadilar. Matnni o'rganib chiqadilar va



	<p>savolni yakka tartibda o'rganishni talab etadi (Ma'ruza matnlari- 20-34 betlar).</p> <p>So'ngra yangi guruhlar tashkil etib o'rganilgan savolni birgalikda tahlil qilishni uyushtiradi. Muhokama tugugach har bir savol bo'yicha tayinlangan ekspertlar o'zlarining birlamchi guruhlariga qaytib kelishini va o'rgangan savollarni birlamchi guruh a'zolariga yetkazishni tashkil etadi.</p> <p>2.2 Guruh aro savol – javob tashkil etadi.</p> <p>Baho guruhga qo'yiladi.</p> <p>Baholash me'zonlari doskaga osib qo'yiladi (2-ilova).</p> <p>Barcha javoblarni umulashtirib xulosa qiladi.</p> <p>«Qobusnoma» asaridan parcha keltiradi va uni talabalar bilan birgalikda tahlil qiladi (3-ilova).</p>	<p>muhokama qiladiilar.</p> <p>Tushuntiradilar va tinglaydilar.</p> <p>2.2.Mavzu bo'yicha savollar tayyorlaydi, savollarga javob beradi.</p> <p>Muhokamada ishtirok etadilar.</p>
<p>3-bosqich. Yakuniy (10 daqiqa.)</p>	<p>3.1. Mavzu bo'yicha umumiy xulosalarni bayon etadi.</p> <p>3.2.Dars davomida bajarilgan ishlarning natijalarini va guruhlar faoliyatini baholaydi.</p> <p>3.3.Mustaqil ish uchun o'quv topshiriqlarini talabalar diqqatiga havola etadi ( 4-ilova).</p>	<p>3.1.Talabalar o'z fikrlarini bildiradilar.</p> <p>O'MK ga murojat etadi.</p>

1-ilova(3.1.)


**Guruhda ishlash qoidalari, zigzag texnikasi.**

Hamkorlikda o'qitish texnologiyasi quyidagi tamoyilga asoslanadi:  
 -talabalar kichik guruhlarga ajratiladi;  
 -guruhning har bir a'zosi mavzuning biror qismi bo'yicha ekspertga aylanadi;  
 -o'zi o'rgangan masalani guruhning boshqa a'zolariga tushuntiradi;  
 -har bir guruh a'zosi tushuntiradi va eshitadi shu yo'sinda mavzuni to'liq egallaydi.  
 «Zigzag» texnikasini tashkil etish jarayonining sxematik ko'rinishi.

1-босқич.  
 Ўқув матнини  
 гуруҳ аъзолари  
 орасида бўлади ва  
 улар ахборот

2-босқич.  
 Ҳар бир савол  
 бўйича  
 экспертларнинг

3-босқич.  
 Билимлар билан  
 бўлишадилар. Билим-  
 ларини текширадилар.



2-ilova (3.1.)

**Talabalarining javoblarini baholash me'zonlari.**

- 1.Savolni to'g'ri tuzish- 0.1 ball.
- 2.Savolga to'liq javob -0.2 ball.
- 3.Qo'shimchalar uchun- 0.2 ball.
- Jami: 0.5 ball.

3-ilova (3.1.)

## Ko'rgazmali materiallar

Абу Али ибн Сино насиҳат ҳақида:

- 1.Насиҳат кўпол оҳангда берилиши керак эмас;
- 2.Сухбатдошининг илм даражасини ҳисобга олиш заурур;
- 3.Насиҳатга кўп берилмаслик керак,уни ўртоқлик суҳбати тарзида олиб бориш керак;
- 4.Насиҳатни мулойм оҳангда,ёлғиз олиб бориш керак;
- 5.Агар таъна қилмоқчи бўлсанг, бошқалар камчилиги билан қиёслаб таъна қил;
- 6.Агар ўз эътиқодининг айтмоқчи бўлсанг, фақат бир фактга таянма, балки кўп масалалар билан исботла, суҳбатдошининг буни юрагига яқин олишга,шу нарса ҳақида ўйлашга ва ҳақиқатни излашга ишонтир;
- 7Агар суҳбатдошининг сенинг гапларинга эътиборсизлик қилса,гапни бошқа мавзуга бур.

Кайковуснинг «Қобуснома » асарида сухандонликка алоҳида эътибор берилади.

У ахлоқийликнинг биринчи белгиси-сухандонлик деб билади.У нотикликда рост сўзлаш кераклигини таъкидлайди Сўзларни тўрт турга бўлади:

- сўзларнинг биринчи тури билинмайди ва айтилмайди:
- иккинчиси айтиладиган ва биладиган;
- учинчиси ҳам билинади,ҳам билишга зарурати йўқ, аммо айтса бўлади;
- тўртинчиси билинадиган ва айтиладиган.

**Mustaqil ta'lim uchun o'quv topshiriqlari.**

1. Qobusnoma asarining suhandonlikga bag'ishlangan qismi bilan tanishib chiqish.
2. A.Navoiy ijodi bilan tanishish va uning nutq madaniyatiga izoh berish.
3. A.A.ibn Sino nasihat qilish odobi haqidagi fikrlariga baho bering.

Ким олим нуқтада барҳақ де они,  
 Гар базм тузар биҳишти мутлақ де они.  
 Ҳар кимсаки йўқ илмга анга аҳмақ де они,  
 Мажлисдаки илм бўлса учмақ де они.

Алишер Навоий.

**3.2 Amaliy mashg'ulot darsini tashkil etish texnologiyasi.**

<i>Talabalar soni:</i> 25	<i>Vaqt</i> – 2 soat.
<i>Dars shakli</i>	Konferensiyaga asoslangan amaliyot darsi.
<i>Mashg'ulot rejasi</i>	1.Markaziy Osiyoda voizlik san'ati. 2.Abu Nasr Farobiy, Abu Ali ibn Sino nutq haqida. 3.Qobusnomada suhandonlik ilmi haqida.
<i>Dars maqsadi:</i> Qadimgi sharqda notiqlik san'atining rivojlanish tarixi haqidagi bilimlarni mustahkamlash va chuqurlashtirish.	
<i>Pedagog vazifalari:</i> • Talabalarda mavzuni chuqur o'rganish ehtiyojini uyg'otadi; • Mavzu bo'yicha bilimlarni mustahkamlaydi va chuqurlashtiradi; • Suhandonlik qoidalariga amal qilish malakasini shakllantiradi.	<i>O'quv natijalari:</i> • Voizlik san'atining shakllarini va turlarini sanab beradi va izoh beradi;  • A.N.Farobiy va A.A.ibn Sinoning notiqlik san'atiga qo'shgan hissasini tahlil qiladi va baho beradi;  • Suhandonlik qoidalaori asosida nutqni tayyorlaydi.

<i>Usul va texnikalar</i>	Disskusiya, taqdimot.
<i>O'qitish vositalari</i>	Ma'ruza tezislari, diskussiya qilish qoidasi haqida eslatma, baholash me'zonlari.
<i>O'qitishning shakli</i>	Jamoa va yakka holda ishlash.
<i>O'qitish shart-sharoitlari</i>	O'quv xonasi.
<i>Monitoring va baholash</i>	Tezislarni tahlili, og'zaki javob.

### Seminar darsiga texnologik karta

Faoliyat bosqichlari	Faoliyat mazmuni	
	Pedagog	talaba
Tayyorgarlik bosqichi.	Talabalar tayyorlab kelgan referatlar bilan tanishadi; Referat yuzasidan savollar tug'ilgan holda ularga talabdan javob berishini so'raydi.	Seminar darsiga tayyorlanadigan ma'ruzachilarga savollar beradilar.
1-bosqich. Kirish (10 daqiqa)	1.1 Seminar darsining mavzusini, maqsadini va erishish lozim bo'lgan o'quv natijalarini e'lon qiladi hamda boshqaruvchini tayinlaydi. 1.2.Darsning tashkil etish ketma-ketligi va baholash me'zonlari, munozara qoidalari bilan tanishtiradi (1-ilova).	1.1.Eshitadilar, yozib oladilar, savol beradilar.
2-bosqich. Asosiy ( 60 daqiqa)	2.1.Ma'ruzachilarning chiqishlarini tashkil etadi. Ma'ruzaning mantiqan bog'liqligiga e'tibor qaratadi; Munozarali savollar tug'ilganda jamoa bo'lib savolni tahlil etishni uyushtiradi. 2.2.Har bir ma'ruzani jamoa bo'lib tahlil etishni uyushtiradi: -savollar beradi ( 2-ilova). -aytilgan fikrlarga nisbatan munosabat bildiradi; -har bir ma'ruzani tahlil qilish va xulosalar	2.1.Ma'ruza qiladilar. Boshqaruvchilar Responentlar va opponentlar so'z beradi. 2.2. munozara asosida

	chiqarish bilan tugatilishini ta'minlaydi.	ma'ruzani tahlil etadilar. Ekspertlarba ho-laydilar.
3-bosqich. Yakuniy ( 10 daqiqa)	3.1. Amaliy mashg'ulot natijalarini tahlil etadi: -ekspertlar o'z fikrlarini bildiradilar; -mavzu bo'yicha muhim fikrlarni qaytarib o'tadi; -xulosalar qiladi; -erishilgan natijalarni belgilaydi. 3.2.Mustaqil ta'limga tegishli topshiriqlarni aytadi ( 3- ilova)	3.1.Talabalar o'z fikrlarini bildiradi.  O'UM ga murojat etadilar.

Ilova-1(3.2.)

### Munozara o'tkazish qoidalari bo'yicha eslatma

- 1.Munozara o'zaro munosabatlarni aniqlashga emas, balki muammoni yechimini topishga qaratilgan bo'lishi lozim.
- 2.Reglamentga rioya qilish lozim.
- 3.O'z fikrlarini vazminlikni saqlagan holda, hissiyotlarga berilmasdan bayon etish lozim.
- 4.Boshqalarning fikrini tushunishga harakat qil.
- 5.Mavzudan chetga chiqma.
- 6.Muomala madaniyatiga amal qil.
- 7.O'z fikringni himoya qil.

### Munozara asosidagi seminar darsida rollar taqsimoti.

**Boshqaruvchi-** muhokama jarayonini borishini kuzatadi, mantiqiy bog'lanishlar, daliliy bayon, tushunchalarni to'g'ri ishlatishni va reglamentga amal qilishni tekshirib boradi.

**Resenzent-** dokladga nisbatan o'z munosabatini bildiradi, ishning ijobiy tomonlarini va ma'lum kamchiliklarini ko'rsatadi. Ishning dolzarbligi, mantiqiligi, aniqligi, izchilligiga ahamiyat beradi.

**Opponent-** dokladning mazmun –mohiyatini ochib beradi, uning ahamiyatini tahlil etadi mavzu ustida kelajakda ishlashning yo'nalishlarini ko'rsatib beradi.

**Ekspert-** munozaraning mahsuldor bo'lishini ta'minlash uchun bildirilgan fikrlarni tahlil etadi, xulosa va tavsiyalarni umumlashtirib, ma'ruzachilarga o'z fikrini bildiradi.

**Munozara olib borish bo'yicha reglament**

- 1.Ma'ruza uchun- 5 daqiqa.
- 2.Resenziya uchun- 2 daqiqa.
- 3.Opponent o'z fikrini bildirishi uchun- 5 daqiqa.
- 4.Har bir ma'ruzani jamoa bo'lib muhokama qilish uchun- 10 daqiqa.

**Ma'ruzachi va munozara qatnashchilarini baholash me'zonlari.**

Baholash me'zonlari ( balda)	Qatnashuvchilar		
	Ma'ruzachilar ( I.Sh.)		
1.Ma'ruzaning mazmuni -0.1	1	2	3
-mantiqan bog'langanligi va izchilligi, nutqning ravonligi-0.2			
2.Kurgazmalilik- 0.2			
Jami: eng yuqori ball: 0.5 ball			
	OPPONENTLAR ( I.Sh)		
1. Ma'ruzani tahlil qilish -0.1			
-ma'ruzaning ijobiy tomonlarini ochib berish- 0.2			
-ma'ruzada yo'l qo'yilgan kamchiliklarni ko'rsatish- 0.2			
Jami eng yuqori ball: 0.5 ball.			
	Resenzentlar va munozara ishtirokchilari		
1.Savollar			
O'rinli savollar-0.2			
-Qo'shimchalar- 0.3			
Jami eng yuqori ball-0.5 ball.			

2-ilova (3.2.)

**Muhokama qilish va xulosalar chiqarishga yordam beruvchi  
yo'naltiruvchi savollar**

**1-mavzu: Markaziy Osiyoda voizlik san'ati.**

1.Va'z va voiz tushunchalarni ma'nosi qanday?

2. Qadimgi Sharqda voizlik san'atining rivojiga kimlar hissa qo'shgan?
3. Voizlikning uch shakli (dabirlik, xatiblik, muzakkirlik) ga qanday izox berasiz?

**2-mavzu: Abu Nasr Farobiy, Abu Ali ibn Sino nutq haqida.**

1. Abu Nasr Farobiy nutq va til haqida qanday fikr bildiradi?
2. Mantiq haqidagi fikrlarining mohiyati nimada?
3. A.A. ibn Sino tarbiya jarayonida nutqning o'rniga qanday baho beradi?

**3-mavzu: Qobusnomada suxandonlik ilmi haqida.**

1. «Qobunoma» asarining mohiyati nimada?
2. Suxandonlik qismida notiqlik haqida qanday fikrlar bildirilgan?
3. Notiq qanday fazilatlarga ega bo'lishi talab qilinadi?

3-ilova (3.2.)

<b>Mustaqil ta'lim uchun topshiriqlar</b>
<ol style="list-style-type: none"> <li>1. Alisher Navoiy she'rlarini o'rganish va tahlil qilish.</li> <li>2. Qobusnoma asaridagi notiqlikka oid fikrlarni daftarga ko'chirib olish.</li> </ol>

<b>4 -Mavzu</b>	<b>Tilshunoslik va uning bo'limlari</b>
-----------------	---

(ma'ruza 2 soat, amaliyot 2 soat)

**4.1. Ma'ruza darsiga texnologiya.**

<i>Talabalar soni:</i> 25	<i>Vaqt:</i> 2 soat.
<i>Dars shakli</i>	«Kop-kop» texnikasi asosidagi ma'ruza.
<i>Ma'ruza rejasi</i>	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. Fonetika.</li> <li>2. Leksikologiya.</li> <li>3. Morfologiya.</li> </ol>
<i>Dars maqsadi:</i> Fonetika, leksikologiya, morfologiya haqidagi bilimlarni shakllantirish.	
<i>Pedagog vazifalari:</i>	<i>O'quv natijalari:</i>
<ul style="list-style-type: none"> <li>• fonetika bo'limining maqsadi, vazifalari va bu sohadagi izlanishlarni yoritib beradi;</li> </ul>	<ul style="list-style-type: none"> <li>• fonetika bo'limining maqsadi va vazifalarini sanab beradi;</li> <li>• leksikologiya bo'limiga tavsif beradi;</li> <li>• morfologik va sintaksis jihatdan tahlil qilish</li> </ul>



<ul style="list-style-type: none"> <li>• leksikologiya bo‘imi-ning bugungi kundagi vazifalarini bayon etadi;</li> <li>• morfologiya va sintaksisning bo‘limlarining tadqiqot manbalarini bayon etadi.</li> </ul>	qoidasini egallaydi.
<i>Usullar va texnikalar</i>	Ma’ruza, suxbat, muhokama, kop-kop, taqdimot
<i>O‘qitish vositalari</i>	Tarqatma materiallar, qog‘oz, marker, skotch, doska. Eslatma va qoidalar.
<i>O‘qitishning shakli</i>	Jamoa, kichik guruhlar.
<i>O‘qitish shart-sharoilari</i>	Kichik guruhlarda ishlashga mo‘ljallangan xona.
<i>Monitoring va baholash</i>	Og‘zaki javob, taqdimot.

#### 4.1. Ma’ruza darsiga texnologik karta

Faoliyat bosqichlari	Faoliyat mazmuni	
	pedagog	talaba
1-bosqich. Kirish (10 daqiqa)	<p>1.1. Darsining mavzusini, maqsadini va erishish lozim bo‘lgan o‘quv natijalarini e‘lon qiladi .</p> <p>1.2. Mavzu bo‘yicha tayyorlab kelingan ishlanmalarni ko‘zdan kechiradi.</p> <p>1.3. Darsning tashkil etish ketma-ketligi va baholash me‘zonlari, guruhda ishlash qoidalari bilan tanishtiradi (1-ilova).</p>	<p>1.1. Eshitadilar, yozib oladilar, savol beradilar.</p> <p>1.2. Tinglaydilar, savol beradilar.</p>
2-bosqich. Asosiy (60 daqiqa)	<p>2.1. Talabalarni hamkorlikda ishlash texnologiyalaridan biri «kop-kop» usulida ishlash ketma-ketligi bilan tanishtiradi. (2-ilova).</p> <p>Talabalarni to‘rtta kichik guruhlariga ajratadi. Bir guruhni ekspert guruhi qilib tayyorlaydi va vazifalarini tushuntiradi.</p> <p>2.2. Qolgan uch guruhga ma’ruzaning biror savoliga tegishli bo‘lgan ma’ruza matnlari, o‘quv qo‘llanmalar tarqatiladi.</p>	<p>2.1. Tinglaydilar</p> <p>Guruhlariga bo‘linadi.</p> <p>Ekspert guruhi vazifani yozib oladi.</p>


	<p>Savolni avval yakka tartibda o'rganilishini so'ngra guruh ichida savol muhokama qilinib, guruh o'ziga berilgan savol yuzasidan taqdimot tayyorlanilashi lozim ekanligini e'lon qiladi. Taqdimot e'lon qilinadi.</p> <p>Yo'naltiruvchi savollar berib boradi. Baholash me'zonlari doskaga osib qo'yiladi (3-ilova). Barcha savollar muhokama qilib bo'lingandan keyin mavzu bo'yicha umumiy xulosa qiladi.</p>	<p>2.2.savolni o'rganadi va munozara asosida savolni tahlil etadilar. Taqdimotga tayyorgarlik ko'radilar. Taqdimot qiladilar, savollarga javob beradilar. Ekspert guruhi baholaydi. Tinglaydilar.</p>
<p>3-bosqich Yakuniy. ( 10 daqiqa)</p>	<p>3.1. Mavzuning amaliy ahamiyatiga e'tibor qaratadi. 3.2. O'tkazilgan darsga umumiy baho beradi. 3.3. Mustaqil ta'limga tegishli topshiriqlarni aytadi (4-ilova).</p>	<p>3.1. Talabalar o'z fikrlarini bildiradilar. O'MK ga murojat etadi</p>

1-ilova (4.1.)

<p><b>Гуруҳ бўлиб ишлаш қондаси:</b></p> <p>1. Гуруҳнинг ҳар бир аъзосини баён этаётган фикрини сабр-тоқат билан эшитиш.</p> <p>2. Гуруҳнинг ҳар бир аъзоси масулиятни ҳис этган ҳолда фаолият кўрсатиши шарт.</p> <p>3. Ўзаро фикр алмашиши ва кўмаклашиши зарур.</p> <p>4. Гуруҳ фаолиятини баҳолашда иштирок этиши талаб этилади.</p> <p>5. Жамоа бўлиб ишлашга ўрганиши талаб этилади.</p>
--

2-ilova (4.1.)

### **Hamkorlikda o'qitishning «Kop-kop» usuli**



3-ilova (4.1.)

### Muhokama uchun savollar

#### Rejaning birinchi punkti bo'yicha

1. Tilshunoslikning fonetika bo'limiga umumiy tavsif bering.
2. Uning vazifalari nimadan iborat.
3. Tadqiqot ob'ektiga misollar keltiring.

#### Rejaning ikkinchi punkti bo'yicha

1. «Leksikologiya» tushunchasiga izzox.
2. Leksikologiyaning o'rganish ob'ekti va vazifalari.
3. Misollar keltiring.

#### Rejaning uchinchi punkti bo'yicha

1. Morfologiya tushunchasiga izzox.
2. Morfologiya bo'limining mazmuni va vazifalari.
3. Misollar keltiring.

3-ilova (4.1.)

### Baholash me'zonlari

Guruhlar	Mavzuni to'liq bayon etish (0.2 ball)	Aniq ,lo'nda va to'g'ri talaffuz qilish (0.1.ball)	Ko'rgazmalilik (0.2 ball)	Jami ball
1				

2				
3				

### O'rtacha umumiy ballar

Guruhlar	Umumiy ball	Umumiy ball	Umumiy ball
1	-		
2		-	
3			-
Umumiy ballarning yig'indisi			
Yig'ilgan ballarni 3 ga bo'lingan miqdori.			

1-o'rin = 4 ball- a'lo.

2-o'rin=3 ball – yaxshi.

3- o'rin= 2 ball –o'rta.

4-ilova( 4.1.)

### Mustaqil ta'lim uchun topshiriqlar

- 1.Bugungi kunda O'zbek tili lug'atining boyib borish sababalarini aniqlang.
- 2.Yangi kirib kelgan so'zlarni toping va izox bering.
- 3.Yo'qolib ketgan so'zlarga misollar toping.

### 4.2. Amaliy mashg'ulot texnologiyasi

<i>Talabalar soni: 25</i>	<i>Vaqt- 2 soat.</i>
<i>Dars shakli</i>	Hamkorlikda o'qitish texnologiyasiga asoslangan amaliy mashg'ulot.
<i>Mashg'ulot rejasi</i>	1.Fonetika. 2.Leksikologiya. 3.Morfologiya.
<i>Dars maqsadi:</i> Fonetika, leksikologiya, morfologiya haqidagi bilimlarni chuqurlashtirish va mavzu bo'yicha malaka, ko'nikmalarni shakllantirish.	
<i>Pedagog vazifalari:</i> •mavzuga nisbatan	<i>O'quv natijalari:</i> •fonetika,leksikologiya, morfologiya kabi

qiziqish uygʻotish va oʻrganilgan axborotni mustahkamlash; • malaka va koʻnikmalarni shakllantiruvchi faoliyatni tashkil etadi; Tahlily faoliyatni tashkil etadi.	tushunchalarni tahlil qiladi;  • matnni fonetik, morfologik jihatdan tahlil qiladi;  • bugungi kundagi oʻzbek tili leksikologiyasida yuz berayotgan oʻzgarishlarni tahlil qiladi.
<i>Usullar va texnikalar</i>	Suxbat, muhokama, kichik guruhlarda faoliyat bajarish, taqdimot
<i>Oʻqitish vositalari</i>	Tarqatma materiallar, qogʻoz, marker, skotch, Doska
<i>Oʻqitishning shakli</i>	Jamoa, kichik guruhlar.
<i>Oʻqitish shart-sharoitlari</i>	Kichik guruhlarda ishlashga moʻljallangan xona.
<i>Monitoring va baholash</i>	Ogʻzaki javob, taqdimot, mustaqil ish

### Amaliy mashgʻulot darsining texnologik kartasi

Faoliyat bosqichlari	Faoliyat mazmuni	
	pedagog	talaba
1-bosqich. Kirish (10 daq.)	1.1.Darsining mavzusini, maqsadini va erishish lozim boʻlgan oʻquv natijalarini eʼlon qiladi . 1.2.Darsni tashkil etish ketma-ketligi va baholash meʼzonlari, guruhda ishlash qoidalarini eslatadi.	1.1.Eshitadilar, yozib oladilar,savol beradilar.  1.2. Tinglaydilar, savol beradilar.
2-bosqich. Asosiy (60 daq.)	2.1.Diqqatni jamlovchi savollar bilan murojat etadi: 1.Tilshunoslikning fonetika boʻlimi qanday vazifalarni bajaradi? 2.Morfologiya boʻlimi-chi? 3.Tilshunoslikning leksikologiya boʻlimi qanday vazifalarni bajaradi? • Javoblar tahlil qiladi va	2.1.Tinglaydilar  Javob beradilar.  Tinglaydilar.

	<p>umumlashtiradi.</p> <p>2.2. Talabalarni to'rt guruhlarga ajralishini so'raydi.</p> <p>Guruhlarning har biriga alohida vazifalar tarqatib bajarish lozim bo'lgan faoliyat haqida tushuncha beradi.</p> <p>Ekspert guruhini tayinlaydi va taqdimotni baholash me'zonlari haqidagi ma'lumotni beradi ( 1-ilova).</p> <p>Qolgan uch guruhga alohida vazifa beriladi va ishlanishi lozim bo'lgan matnlar tarqatiladi.( 2-ilova).</p> <p>Taqdimotni e'lon qiladi.</p> <p>Baholashni ishlab chiqilgan me'zon asosida tashkil etadi.</p> <p>2.3. Har bir guruhga yarim varog'lik hikoya tuzishni taklif etadi. Hikoyada tarihiy yo'qolib ketgan so'zlarning ishtirok etishi lozim degan shart qo'yadi.</p> <p>Taqdimot e'lon qilinadi.</p> <p>Yo'qolib ketgan so'zlarni eng ko'p ishlatgan guruh g'olib deb topiladi.</p> <p>Barcha savollar muhokama qilib bo'lingandan keyin mavzu bo'yicha umumiy xulosa qiladi.</p>	<p>2.2. Guruhlar tashkil etadilar.</p> <p>Taqdimotga tayyorgarlik ko'radilar.</p> <p>Baholash me'zonlari bilan tanishadilar.</p> <p>Topshiriqni bajaradi</p> <p>Taqdimot qiladilar, savollarga javob beradilar.</p> <p>Ekspert guruhi baholaydi.</p> <p>2.3. Qisqa hikoya tuzadilar.</p> <p>Taqdimot qiladilar.</p>
<p>3-bosqich.</p> <p>Yakuniy</p> <p>(10 daq.)</p>	<p>3.1. Mavzuning amaliy ahamiyatiga e'tibor qaratadi.</p> <p>3.2. O'tkazilgan darsga umumiy baho beradi.</p> <p>3.3. Mustaqil ta'lim vazifasi (3-ilova)</p> <p>3.4. Keying ma'ruza darsiga insert usulida tayyorlanib kelishni so'raydi (4-ilova).</p>	<p>3.1. Talabalar o'z fikrlarini bildiradilar.</p> <p>O'UM ga qarang</p>

1-ilova (4.2.)

### Baholash me'zonlari

1. Topshiriq to'liq bajarilganligi -0,5 dan -1. ballgacha.
2. Aniq va lo'nda nutqni bayon etish-0,1dan -0,2 ballgacha.
3. Misollar keltirish-0,3 baldan – 0,5 ballgacha.
Jami maksimal ball : 1,7

**1-ekspert varog‘i**

**(Fonetika)**

- 1.Unli, undosh ,jarangli va jarangsiz harflarni toping
- 2.Ular ishtirokida so‘zlar tuzing.
- 3.Ana shu so‘zlardan kichik hikoya tuzing.

**2- ekspert varog‘i**

**(Leksikologiya)**

1. Leksikologiya tushunchasiga izzox beringyu
2. Ichki manbalar asosida lug‘atning boyib borishiga misrol keltiring.
3. Tashqi manbalar hisobiga lug‘atning boyib borishiga misol keltiring.

**3-ekspert varog‘i**

**( Morfologiya)**

- 1.Morfologiya tushunchasiga izzox bering.
- 2.Sintaksis tushunchasiga izzox bering.
- 3.Gap tuzing va uni morfologik va sintaksis jihatdan tahlil qiling.

**Mustaqil ta’lim uchun vazifa**

## АМЕРИКА 2000 ЙИЛДА ЖАҲОННИНГ САРА ЧАВАНДОЗЛАРИНИ ЧОРЛАЙДИ

Дунё яралибдики, инсоинятни отсиз тасаввур этиб бўлмайди. Қддимги вақтлардан бери отлар, тулпорлар иштирокца турли тадбирлар ўтказишб турган. Уларнинг сони XX асрга келиб 100

дан ошиб кетди. Булар орасидаги энг нуфузли мусобақа от спорта бўйича ҳар йили ўтказиладиган Жаҳон кубоги мусобақлари-дир. Ушбу мусобақда ҳар йили 200 га яқин давлатларнинг энг чапдаст чавандозлари штирок этишади.

2000 йили Американинг Лас-Вегас шадрида от спортн бўйича жаҳон кубога учун навбатдаги бахслар бўлиб ўтади. Айни пайтда, кўпгана давлатларда ушбу кубок олдидан саралаш мусобақалари бўлиб ўтмоқда.

Мустақиллик туфайли ресгубликада от спортига эътибор ку-чайди. Чавандозларимизнинг елкасига офтоб тегаб, халқаро турнирларда иштирок эта боишадилар ва турли даражадаги сов-ринлар шодасини келтирдилар.

Юртимизда ўтган икки йил мобайнида от спортн бўйича 10 дан ортик; турли расмий мусобақалар ташкат этилди. ўтказилган турнирларда юртимиз чавандозлари билан биргалиқда кўпгана давлатлар — Қозоғистои, Қирғизистон, Туркманистон спортчилари ҳам ўз тулиорлари билан голиблик учун кураш олиб боришди. Бундай мусобақалар эса сўзсиз юртимнз чавандозларининг тажрибасини оширди.

Албатта тажриба, маҳорат улкан натижалар дебочасидир. Шу боис, ушбу Жаҳон кубогининг III босқич саралаш мусобақаларида юртимиз чавандозлари муносиб қатнашади дея умил қиламиз. Зеро, умиднинг ортида улкан масъулият, катта шижоат ётганлиги шубҳасиз.

Matni yozadi va uni morfologik jihatdan tahlil qiladi.



**O'quv topshirig'i**

Keyingi mavzu bilan insert usulidan foydalangan holda tanishish va jadvalni to'ldirish.

Mavzu: Adabiy til va norma. O'zbek tili va uning rivoji.

Reja:

1. Norma hodisasi-lingvistik tushuncha sifatida.
2. Tilning umumiy va xususiy normasi.
3. Adabiy til normasi va uning belgilari.

<b>5- Mavzu</b>	<b>Adabiy til va norma. O'zbek tili va uning rivoji</b> ( ma'ruza 2 soat, seminar 2 soat)
<b>5.1.Ma'ruza darsini olib borish texnologiyasi</b>	


<b>Ma'ruza darsining texnologik kartasi</b>	
<i>Talabalar soni: 25</i>	<i>Vaqt- 2 soat.</i>
<i>Dars shakli</i>	Ekspert ishtirokida tashkil etilgan ma'ruza.
<i>Ma'ruza rejasi</i>	1. Norma hodisasi-lingvistik tushuncha sifatida. 2. Tilning umumiy va xususiy normasi. 3. Adabiy til normasi va uning belgilari.
<i>Dars maqsadi:</i>	Adabiy til normasi, til va uning rivoji haqidagi bilimlarni shakllantirish.
<i>Pedagog vazifalari:</i> • tilshunoslikda norma hodisasini tahlil qiladi; • tilning umumiy va xususiy normasining mohiyatini ochib beradi; • adabiy til normasining belgilari haqida tushuncha beradi.	<i>O'quv natijalari:</i> • norma hodisasini tahlil qiladi;  • tilning umumiy va xususiy normalariga tavsif beradi;  • adabiy til normalarining belgilarini sanab beradi.
<i>Usullar va texnikalar</i>	Ma'ruza, suxbat, muhokama, kichik guruhlarda faoliyat bajarish, taqdimot
<i>O'qitish vositalari</i>	Tarqatma materiallar, texnik vositalar, qog'oz, marker, skotch, doska
<i>O'qitishning shakli</i>	Yalpi, jamoa
<i>O'qitish shart-sharoitlari</i>	Texnik vositalar bilan ishlashga moslashgan Xona
<i>Monitoring va</i>	Og'zaki – so'rov, savol-javob

Faoliyat bosqichlari	Faoliyat mazmuni	
	pedagog	talaba
1-bosqich. Kirish (10 daq.)	<p>1.1.Darsining mavzusini, maqsadini, rejasini va erishish lozim bo'lgan o'quv natijalarini e'lon qiladi .</p> <p>1.2.Darsni tashkil etish usulini e'lon qiladi.</p> <p>1.3.Taklif etilgan ekspertni tanishtiradi (adabiy til normasi masalasi bo'yicha shug'ullanuvchi).</p> <p>1.4.Uyga berilgan vazifani (insert usulida matnni o'qib, insert jadvalini tuzish) tekshiradi.</p> <p>Talabalardan matn bilan mustaqil tanishish jarayonida vujudga kelgan muammoli savollarni so'raydi va ularni doskaga yozadi.</p>	<p>1.1.Eshitadilar, yozib oladilar, savol beradilar.</p> <p>1.2.Tinglaydilar, savol beradilar.</p> <p>1.4.insert jadvalini ko'rsatadi va savollar beradi.</p>
2-bosqich. Asosiy (60 daq.)	<p>2.1.Mavzu bo'yicha asosiy tushunchalar haqida qisqacha ma'lumot beradi (1-ilova).</p> <p>Talabalarning savollarga javob beradi.</p> <p>2.2.So'zni ekspertga beradi va undan bugungi kunda adabiy til normasi sohasida ilmiy va amaliy yo'nalishlarda qanday ishlar olib borilayotganligini gaprib berishni so'raydi.</p> <p>Ekspertning axboroti tugagach savol-javobni tashkil etadi (2- ilova).</p> <p>Savol-javob jarayoni tugagach ekspert axborot va javoblariga qisqacha xulosa yasaydi.</p> <p>2.3.Dars boshlanishida doskaga yozilgan savollarga e'tiborni qaratadi va javob topilgan savollarni birin-ketin o'chiradi.</p> <p>Javobsiz qolgan savollarga ekspert</p>	<p>2.1.Tinglaydilar</p> <p>Javob beradilar.</p> <p>Savol beradilar.</p> <p>Savolni tahlil qilishda ishtirok etadilar.</p>

	bilan birgalikda va talabalarning faol ishtirokida Mavzuni yakunlaydi va umumiy xulosa qilinadi.	
3-bosqich Yakuniy. ( 10 daq.)	3.1. Mavzuning amaliy ahamiyatiga e'tibor qaratadi. 3.2. O'tkazilgan darsga umumiy baho beradi. 3.3. Mavzu yuzasidan qisqa esse yozib kelishni taklif etadi (3-ilova).	3.1.Talabalar o'z fikrlarini bildiradilar.  O'UM ga murojat etadi.


1.ilova ( 5.1.)

**Ko'rgazmali materiallar  
Til normalari**



2-ilova( 5.1.)

## O‘zbek adabiy til normalarining qismlari



3-ilova (5.1.)

### Mavzu bo‘yicha savollar

1. Tilning normasini o‘rnatishda nimalarga e’tibor beriladi?
2. Dvar o‘tishi bilan til normalari o‘zgarib borar ekan, ularni o‘rnatish shartmikan?
3. Og‘zaki adabiy tilga rioya qilish yozma adabiy tilga rioya qilishdan ko‘ra qiyinroq ekanini qanday izzoxlaysiz?
4. Nima uchun adabiy til normalariga rioya qilish zarur deb bilasiz?
5. Adabiy til normalarini Kim o‘rnatadi?
6. Siz doim adabiy til normalariga rioya qilasizmi?
7. Adabiy til normalari asosida fikr almashishga o‘rganishning qanday usullarini bilasiz?
8. Bugungi kunda o‘rganilayotgan sohada qanday ilmiy-tekshirishlar olib borilmoqda?

### 5.2. Amaliy mashg‘ulot darsining texnologiyasi

<i>Talabalar soni: 25</i>	<i>Vaqt- 2 soat.</i>
<i>Dars shakli</i>	Hamkorlikda o‘qitish texnologiyasiga asoslangan amaliy mashg‘ulot.

<i>Mashg'ulot rejası</i>	1.Norma hodisasi-lingvistik tushuncha sifatida. 2.Tilning umumiy va xususiy normasi. 3.Adabiy til normasi va uning belgilari.
<i>Dars maqsadi:</i> Adabiy til normasi, til va uning rivoji haqidagi bilimlarni mustahkamlash va chuqurlashtirish .	
<i>Pedagog vazifalari:</i> • mavzu yuzasidan fikr yuritishga nisbatan talabalarda motivatsiya uyg'otadi; • tilshunoslikda norma hodisasi tegishli bo'lgan bilimlarni mustahkamlash; • adabiy til normalariga amal qilgan holda o'z fikrini bayon etish faoliyatini tashkil qiladi.	<i>O'quv natijalari:</i> • Mavzuga nisbatan o'zining mustaqil fikrlarini bildiradi;  • Norma hodisasini tahlil qiladi va xulosalar beradi;  • Adabiy til normalariga asoslangan holda o'z fikrlarini bayon eta oldai.
<i>Usullar va texnikalar</i>	Cuxbat, muhokama, kichik guruhlarda faoliyat bajarish, taqdimot
<i>O'qitish vositalari</i>	Tarqatma materiallar, texnik vositalar, qog'oz,marker, skotch,doska
<i>O'qitishning shakli</i>	Yalpi, jamoa, guruh bo'lib faoliyat ko'rsatish.
<i>O'qitish shart-sharoitlari</i>	Texnik vositalar bilan ishlashga moslashgan Xona
<i>Monitoring va baholash</i>	Og'zaki – so'rov, savol-javob, blits-so'rov.

### Amaliy mashg'ulot darsining texnologik kartasi

Faoliyat bosqichlari	Faoliyat mazmuni	
	pedagog	talaba
1-bosqich Kirish (10 daqiqa)	1.1.Darsining mavzusini, maqsadini, rejasini va erishish lozim bo'lgan o'quv natijalarini e'lon qiladi. 1.2.Darsni tashkil etish usulini e'lon qiladi ( hamkorlik texnologiyasi).	1.1.Eshitadilar, yozib oladilar,savol beradilar. 1.2. Tinglaydilar, savol beradilar.

<p>2-bosqich Asosiy. ( 60 daqiqa)</p>	<p>2.1.O‘rganilgan mavzu yuzasidan blits-so‘rov o‘tkazadi: 1.Norma tushunchasiga qanday izzox berish mumkin? 2.Normaning qanday turlarini bilasiz? 3.Adabiy til normasining tarkibiy qismlariga nimalar kiradi? Javoblarni tahlil qiladi va xulosalaydi. 2.2.Talabalarni to‘rt guruhga bo‘ladi. Jadvalni to‘ldirish yo‘li bilan - adabiy til normasi tushunchasiga tavsif berish lozim ekanligini va taqdimotga tayyorlanish lozim ekanligini e‘lon qiladi.( 1-ilova). Baholash me‘zonlarini doskaga ilib qo‘yadi. (2-ilova ). Talabalarning faoliyatni kuzatib boradi. Taqdimotni e‘lon qiladi. O‘zaro baholash jarayonini tashkil etadi va g‘olib guruhni e‘lon qiladi. Guruhlar ishini tahlil qiladi va xulosalaydi. 2.3. Guruhlar yangi vazifani - ijodiy ish bajarishni taklif etadi. Har bir guruh adabiy til normalariga amal qilgan holda kichik hikoya tayyorlashi lozim ekanligini tushuntiradi. Baholash me‘zonlarini doskaga ilib qo‘yadi (3- ilova) Taqdimotni e‘lon qiladi. O‘zaro baholashni uyushtiradi. Bajarilgan ijodiy ishga nisbatan o‘z munosabatini bildiradi va xulosalaydi.</p>	<p>2.1.Tinglaydilar</p> <p>Javob beradilar.</p> <p>Tinglaydilar Guruhlarga bo‘linadilar va hamkorlikda faoliyat ko‘rsatadilar.</p> <p>Taqdimot qiladilar va boshqa guruhlarning ishini baholaydilar. Tinlaydilar. topshiriqni bajaradilar.</p> <p>Taqdimot qiladilar va o‘zaro baholashda ishtirok etadilar.</p>
<p>3-bosqich Yakuniy.</p>	<p>3.1. Mavzuning amaliy ahamiyatiga e‘tibor qaratadi.</p>	<p>3.1.Talabalar o‘z fikrlarini bildiradilar.</p>

( 10 daqiqa)	3.2. O'tkazilgan darsga umumiy baho beradi. 3.3. Keying ma'ruzaning mavzusini va rejasini e'lon qiladi ( 4- ilova).	Yozib oladilar.
--------------	--	-----------------

1-ilova ( 5.2.)

### Topshiriq

- 1.Jadvalni har bir ustunini to'ldiring.
- 2.Fikrlaringizni adabiy til normasiga amal qilgan holda bayon eting.
3. Javobingizni sxemalar bilan to'ldiring.

### Kengaytirilgan tavsif jadval

2-ilova (5.2.)

### Taqdimotni baholash me'zonlari

Ustun	Javobning to'liqligi	Adabiy til normalariga mosligi	Ko'rgazmaliligi	Jami ballar
1				
2				
3				
4				

- 1.Javobning to'liqligi-1 dan- 2 ballgacha.
  - 2.Adabiy til normalariga amal qilinganlik darajasi – 1 dan – 2 ballgacha.
  - 3.Ko'rgazmalilik – 1-dan- 2 ballgacha.
- Maksimal ball : 6 ball.

Tushuncha	Turlari	Tarkibiy qismlari	Ahamiyati	Rivojlanish qonuniyatlari
Adabiy til normasi				

3- ilova ( 5.2.)

### Topshiriq

Har bir guruhdan ixtiyoriy ravishda mavzuni tanlab, ana

shu mavzuga hikoya yozish vazifasi beriladi. Hikoya adabiy til normalariga amal qilingan holda yozilishi talab etiladi. Taqdimotni o‘zaro baholash orqali olib borilishi ta’kidlanadi.

### Baholash me’zonlari jadvali

Har bir kategoriya uchun 4 baldan berish mumkin

Guruh	Adabiy til normalariga amal qilinganligi	Hikoyaning jozibadorligi	Mantiqiy bog‘lanishlar va izchillik	Jami ballar
1				
2				
3				
4				

12 ball – «5» baho

9 ball- «4» baho

6 ball- «3 baho».

4-ilova ( 5.2.)

### Uyga topshiriq

Mavzu: Til va uslub

Reja:

- 1.Tasviriy vositalar.
- 2.Uslubiy figuralar.
- 3.Nutq va mantiq.
- 4.So‘zlashuv nutqi.
- 5.Rasmiy ish tili, ilmiy uslub.
- 6.Badiiy uslub.

Mavzu rejalari asosida ma’ruza matni va o‘quv qo‘llanamdan foydalangan holda tayyorlanib keling ( insert jadvalini to‘ldiring).

<b>6- Mavzu</b>	<b>Til va uslub</b>
-----------------	---------------------

( ma’ruza 2 soat, seminar 2 soat)

#### 6.1.Ma’ruza darsini tashkil etish texnologiya

<i>Talabalar soni: 25</i>	<i>Vaqt -2 soat</i>
<i>Dars shakli</i>	<i>Muammoli ta’limga asoslangan ma’ruza</i>



<i>Ma'ruza rejasi</i>	1.Tasviriy vositalar. 2.Uslubiy figuralar. 3.Nutq va mantiq,so'zlashuv nutqi. 4.Rasmiy ish tili, ilmiy uslub,badiiy uslub.
<i>Dars maqsadi:</i>	Til va uslub haqidagi bilimlarni shakllantirish.
<i>Pedagog vazifalari:</i> •tasviriy vositalar tushunchasini mohiyatini ochib berish. •uslubiy figuralar haqida tasavvur hosil qiladi; •nutq, mantiq va so'zlashuv nutqining xususiyatlarini tahlil qilib beradi; • rasmiy ish tili, ilmiy uslub,badiiy uslublarning o'ziga xos xususiyatlarini yoritib beradi.	<i>O'quv natijalari:</i> •tasviriy vositalarning turlarini sanab beradi va izzoxlaydi.  •uslubiy figuralarni turini sanab beradi va izzohlaydi;  •nutq, mantiq tushunchalariga izzoh beradi va so'zlashuv nutqining o'ziga xos xususiyatlarini ko'rsatadi;  •rasmiy ish tili, ilmiy uslub, badiiy uslublarni farqlay oladi.
<i>O'qitishning usul, texnikasi</i>	Ma'ruza,muammoli usul, baxs-munozara, juft bo'lib o'ylab ko'r,
<i>O'qitish vositalari</i>	Ma'ruza matni, tarqatma materiallar, proyektor
<i>O'qitish shakli</i>	Frontal,jamoa, juftlikda ishlash.
<i>O'qitish shart-sharoitlari</i>	Texnik asboblarni qo'llash mumkin bo'lgan auditoriya.
<i>Monitoring va baholash</i>	Og'zaki so'roq, organayzer

### **Ma'ruza darsining texnologik kartasi**

Faoliyat bosqichlari	Faoliyat mazmuni	
	Pedagog	Talaba
Tayyorgarlik bosqichi.	1.1.Muammoni shakllantiradi, yakuniy xulosa va optimal yechimini.	

	<p>1.2. Muammoni kichik muammochalarga bo‘lib chiqadi. Har bir kichik muammochaga oraliq xulosani va muammoli savollarni tuzadi. Ushbu savollarning mazmuni muammoni yechimini topishning usul hamda vositalariga qaratilgan bo‘ladi. Muammoni yechish uchun zarur bo‘lgan bilimlarni qaytaradi va talabalarni faollashtiruvchi savollar tuzadi.</p>	
<p>1-bosqich. Kirish (5 daqiqa)</p>	<p>1.1. Darsining mavzusini, maqsadini, rejasini va erishish lozim bo‘lgan o‘quv natijalarini e‘lon qiladi. 1.2. Darsni tashkil etish usulini e‘lon qiladi ( muammoli).</p>	<p>1.1. Eshitadilar, yozib oladilar, savol beradilar. 1.2. Tinglaydilar, savol beradilar.</p>
<p>2-bosqich. Faollashtiruvchi (5 daqiqa.)</p>	<p>2.1. Talabalarining faollashtiruvchi savollar beradi (1-ilova).</p>	<p>Javob beradilar</p>
<p>3-bosqich. Asosiy ( 50 daqiqa)</p>	<p>3.1. O‘rganilgan bilimlarni faollashtirgach ularni muammoning mohiyati bilan tanishtiradi. Muammoni shakllantiradi. 3.2. Talabalarga juftliklarda muammoni tahlil qilib ko‘rishni tavsiya etvadi. Talabalar bilan birgalikda aytilgan g‘oyalarni tahlil qiladi va ularning sust tomonlariga e‘tibor qaratadi. 3.3. Muammoning yechimini qidirishga kirishadi. Birinchi muammochani yo‘naltiruvchi savollar orqali talabalarni faoliyatini uyushtiradi va birinchi oraliq xulosani topishga yordam beradi. Keyingi muammochalarning yechimi ham shu yo‘sinda</p>	<p>3.1. Yozib oladilar 3.2. Muhokama qiladilar va o‘z g‘oyalarini beradilar. Tahlil qiladilar. Muhokama, baxs-munozara qiladilar va g‘oyalarni ilgari suradilar. Muammoning optimal yechimini topadilar</p>

	<p>qidiriladi va barcha oraliq xulosalar qilingandan keyin qo'yilgan muammoning yaxlit yechimi yuzaga keltiriladi.</p> <p>Dars davomida tarqatma materiallardan foydalanadi.</p> <p>Yo'naltiruvchi savollar va xulosalar (2- ilova), ko'rgazmali materiallar</p> <p>Muammoning yechimini shakllantirib daftarlarga yozib olishni so'raydi.</p> <p>Mavzu bo'yicha yakuniy xulosa qiladi.</p>	Yozib oladilar.
4-bosqich. Yakuniy ( 10 daqiqa)	<p>4.1. Mavzuning amaliy ahamiyatiga e'tibor qaratadi.</p> <p>4.2. O'tkazilgan darsga umumiy baho beradi.</p> <p>4.3. Konferensiyaga tayyorlanish lozim ekanligini aytadi va ma'ruza mavzularini talabalar e'tiboriga taqdim etadi (3- ilova).</p>	<p>3.1.Talabalar o'z fikrlarini bildiradilar.</p> <p>O'UM ga qarang.</p>

1-ilova (6.1.)

### Faollashtiruvchi savollar

- 1.Siz qanday uslublar bilan tanishsiz?
- 2.Tasviriy vosita tushunchasi nimani anglatadi?
- 3.Uslubiy figura tushunchasini qanday izoxlash mumkin?

2-ilova (6.1.)

### Muammoni qismlari va yo'naltiruvchi savollar

#### Muammoni shakllantirish

Bugungi kunda o'zbek tilida til vositalari va usulbiy figuralardan qanday hollarda, qay darajada foydalanilmoqda va qanday tendensiyalar mustahkamlanib bormoqda.

#### Yo'naltiruvchi savollar

- 1.Qanday uslublarni (stil) bilasiz?
- 2.Til vositalari deb nimaga aytiladi?
- 3.Til vositalari va uslubiy figuralarning maqsadi nimadan iborat?

### **Muammoning 1- qismi**

**Tasviriy vositalardan :metafora,metemeniya,allegoriya,epitet kabilarni imkoniyatlari qanday va qaysi uslubda ishlatish o‘rinli?**

1.1.Tasviriy vosita ( metafora, metemeniya, allegoriya,epitet) larga izox bering.

1.2.Ularning imkoniyatlarini solishtiring.

1.3.Tasviriy vositalarni qaysi uslublarda ishlatish mumkin ekanligini aniqlang.

**1-oraliq xulosa:** Ushbu tasviriy vositalar obrazli o‘xshatish vazifasini bajaradi, matnni jozibador va ta’sirchan bo‘lishiga yordam beradi,o‘quvchini diqqatini tortadi.Ammo voqea va hodisalarni o‘z ismi bilan atalmaganligi uchun uni rasmiy ish qog‘ozlar va ilmiy uslubda ishlatish mumkin emas.Ulardan badiiy uslubda, va qisman publitsistikada hamda so‘zlashuv nutqida foydalanish mumkin.

### **Muammoning 2- qismi**

**Tasviriy vositalardan : ironiya, simvol,antifraza, perifraz va jonlantirish kabmilarni imkoniyatlari qanday va qaysi uslubda ishlatish o‘rinli?**

2.1.Tasviriy vosita ( ironiya, simvol, antifraza, perifraz va jonlantirish) larga izox bering.

2.2.Ularning imkoniyatlarini solishtiring.

2.3.Tasviriy vositalarni qaysi uslublarda ishlatish mumkin ekanligini aniqlang.

**2-oraliq xulosa:** Ushbu tasviriy vositalar o‘xshatish, kulgi ohangini qo‘llash va fikrni turli ko‘rinishda bildirish bo‘lganligidan so‘zlashuv nutqida katta imkoniyatlar yaratadi.Badiiy adabiyotda ham odamlar o‘rtasidagi muloqatni ko‘rsatish uchun qo‘laylik yaratadi. Albatta rasmiy ish qog‘ozlar va ilmiy uslubda bunday vositalardan foydalanish imkoniyati yo‘q.

### **Muammoning 3- qismi**

**Uslubiy figuralarning imkoniyatlarini qanday va qaysi uslubda ishlatish o‘rinli?**

3.1.Uslubiy figuralarni aniqlang.

3.2.Uning turlarini tavsiflang.

3.3.Qaysi uslubda ishlatish qo‘lay ekanini aniqlang.

### **3-oraliq xulosa:**

Uslubiy figuralar umumiy hissiyotni oshiruvchi maxsus sintaktik qurilmalardir.

Antiteza, aksimoron, ritorik xitob ko‘p bog‘lovchilik gaplar ko‘pincha publitsistika va badiiy uslubda ba’zan publitsistika uslubda ham ishlatilishi mumkin.Gradatsiya va takror so‘zlar, ellipsis asosan she’riyatda va so‘zlashuv nutqida ko‘p ishlatiladi.

### **Yakuniy xulosa:**

Tilshunoslikda fikrni lo‘nda , aniq hamda hissiyotga asoslangan holda yetkazish uchun tasviriy vositalardan va uslubiy figuralardan foydalaniladi. Ushbu vosita va figuralar ko‘proq biddiy adabiyotda va qisman publitsistika uslubida foydalaniladi. Rasmiy ish qog‘ozlar va ilmiy uslub ko‘chma ma’noda emas, balki hodisani haqiqiy ma’nosida ko‘rsatishni talab etadi. Shuning uchun bu holatlarda tasviriy vosita va figuralarni qo‘llash maqsadga muvofiq emas.

### **Muammoning ikkinchi qismi uchun tarqatma material (Tasviriy vositalar)**

Tasviriy vositalar	Harakteristika
1.Epitet	Grekcha so‘z bo‘lib – izoxlovchi degan ma’noni anglatadi.
2.Metafora	Grekcha – ko‘chim degan ma’noni bildiradi. Ya’ni so‘z yoki iborani ko‘chma ma’noda ishlatiladi.
3.Metonimiya	Grekcha so‘z bo‘lib, boshqacha nom berish degan ma’noni bildiradi.
4.Allegoriya	Grekcha so‘z bo‘lib, kinoya ma’nosini bildiradi. Kinoya va kesatish, kichirik so‘zlashuvda tez – tez ishlatib turiladi.
5.Ironiya	Kulgi orqali kesatish, grekcha Kulish degan ma’noni bildiradi.
6.Antifraza	Bu ironiyaning bir turi bo‘lib, faqat ijobiy xususiyatlarni kulgi oxangida aytiladi.
7.Perifraz	Grekcha aylana, boshqacha qilib gapiraman deganidir. Biror gapni ma’nosino o‘zgartirmagan xolda gapni o‘zgartirish.
8.Jonlantirish	Jonsiz narsalarni jonli qilib tasvirlash.
9.Simvol	Ko‘chma ma’noda ishlatiladi, ya’ni ramz ishlatiladi.

### **Muammoning uchinchi qismiga tegishli tarqatma material (Uslubiy figuralar)**

Uslubiy figuralar	Harakteristika
1.Antiteza	Grekcha so‘z bo‘lib, qarama – qarshi qo‘yish ma’nosini bildiradi. U ifodalilikni kuchaytirish uchun qarama –

	qarshi tushunchalarni, fikr, obraz, narsalarni qarama – qarshi holatini tasvirlaydi.
2.Aksimoron	Yangi bir ma’no keltirib chiqarish niyatida birlashtirish mumkin bo‘lmagan so‘zlarni birlashtirishdan kelib chiqadi.
3.Gradatsiya	Lotin tilidan olingan bo‘lib, zinapoya ma’nosini bildiradi. Bunda navbatdagi so‘z oldingisini kuchaytirib borishi yoki aksincha susaytirib borishi mumkin. Bunda intonatsiya muhim rol o‘ynaydi.
4.Ritorik so‘roq	Yoki ritorik xitob uslub sifatida tinglovchining diqqatini mavzuga tortish uchun ishlatiladi. U tinglovchidan javob talab etmaydi.
5.Ko‘p bog‘lovchilik va bog‘lovchiliksiz gaplar	Bog‘lovchisiz gaplar keskinlikni vujudga bog‘lovchilarni ishlatish gapga sokinlik ma’nosini beradi.
6.Ellipsis	Grechcha so‘z bo‘lib, tushurib qolish degan ma’noni bildiradi. U nutqni ixchamlaydi.
7.Takror	So‘zlarni, bo‘g‘imlarni qayta – qayta takrorlanishiga aytiladi.

3-ilova (6.1.)

### **O‘quv topshirig‘i Konferensiya mavzulari**

- 1- mavzu: Taviriy vositalardan foydalanish
- 2-mavzu: Uslubiy fiugralar.
- 3-mavzu: O‘zbek adabiy tilining uslublari.
- 4-mavzu: Publitsistik uslub.
- 5-mavzu: So‘zlashuv nutqining o‘ziga xos jihatlari.

### **6.2.Amaliy mashg‘ulotning texnologiyasi**

<i>Talabalar soni: 25</i>	<i>Vaqt -2 soat</i>
<i>Dars shakli</i>	Anjuman asosida tashkil etilgan amaliy mashg‘uloti
<i>Mashg‘ulot rejasi</i>	1.Tasviriy vositalar. 2.Uslubiy figuralar.

	3.Nutq va mantiq,so‘zlashuv nutqi. 4.Rasmiy ish tili, ilmiy uslub,badiiy uslub.
<i>Dars maqsadi:</i> Til va uslub haqidagi bilimlarni mustahkamlash va chuqurlashtirish .	
<i>Pedagog vazifalari:</i> •.tasviriy vositalardan foydalanish ko‘nikmasini shakllantiradi; •uslubiy figuralardan foydalanish malakasini shakllantiradi; •mustaqil fikr yuritish malakasini rivojlantiradi; • rasmiy ish tili, ilmiy uslub,badiiy uslublar yuzasidan topshiriq uyushtiradi.	<i>O‘quv natijalari:</i> •tasviriy vositalarni qo‘llagan holda jumlar tuzadi, misollar keltiradi.  •uslubiy figuralarni qo‘llagan holda jumlar tuzadi va misollar keltiradi;  •nutq, mantiq tushunchalariga izzoh beradi va so‘zlashuv nutqining o‘ziga xos xususiyatlarini ko‘rsatadi;  •rasmiy ish tili, ilmiy uslub, badiiy uslublarni taqqoslaydi.
<i>O‘qitishning usul, texnikasi</i>	Baxs-munozara, anjuman.
<i>O‘qitish vositalari</i>	Tarqatma materiallar, proyektor
<i>O‘qitish shakli</i>	Frontal,jamoa va yakka bo‘lib ishlash.
<i>O‘qitish shart-sharoitlari</i>	Texnik asboblarni qo‘llash mumkin bo‘lgan auditoriya.
<i>Monitoring va baholash</i>	Og‘zaki so‘roq, organayzer.

### **Amaliy mashg‘ulot darsining texnologik kartasi**

Faoliyat bosqichlari	Faoliyat mazmuni	
	pedagog	talaba
Tayyorgarlik bosqichi.	Tayyorlangan referatlarning mazmuni bilan tanishadi: Zarur bo‘lsa savollar beradi va to‘ldiradi.	Seminarga tayyorgarlik ko‘radi, savollar tuzadi. Ma’ruzachilar dokladlarga qo‘shimchalar kiritadi.
1-bosqich. Kirish	1.1 Amaliyot darsining mavzusini, maqsadini va	1.1.Boshqaruvchi ma’ruzachilarni,

(10 daqiqa)	erishish lozim bo'lgan o'quv natijalarini e'lon qiladi hamda boshqaruvchini taynlaydi. 1.2.Darsning tashkil etish ketma-ketligi va baholash me'zonlari, munozara qoidalarini bilan tanishtiradi (1-ilova).	resenent va opponentlarni tanishtiradi. 1.2.Baholash me'zonlari bilan tanishtiradi. 1.3. Tinglaydilar, savol beradilar.
2-bosqich. Asosiy ( 60 daqiqa)	2.1.Ma'ruzachilarning chiqishlarini tashkil etadi. Ma'ruzaning mantiqan bog'liqligiga e'tibor qaratadi; Munozarali savollar tug'ilganda jamoa bo'lib savolni tahlil etishni uyushtiradi. 2.2.Har bir ma'ruzani jamoa bo'lib tahlil etishni uyushtiradi.: -savollar beradi ( 2-ilova). -aytilgan fikrlarga nisbatan munosabat bildiradi; -har bir ma'ruzani tahlil qilish va xulosalar chiqarish bilan tugatilishini ta'minlaydi.	2.1.Boshqaruvchi ma'ruzachilarga so'z beradi. Muhokama qiladilar va o'z g'oyalarni beradilar. Resenent va opponentlar ma'ruzani tahlil qiladilar.  Muhokama, baxs-munozara qiladilar va g'oyalarni ilgari suradilar.
4-bosqich. Yakuniy ( 10 daqiqa.)	3.1. Amaliy mashg'ulot natijalarini tahlil etadi: -ekspertlar o'z fikrlarini bildiradilar; -mavzu bo'yicha muhim fikrlarni qaytarib o'tadi; -xulosalar qiladi; -erishilgan natijalarni belgilaydi. 3.2.Keyingi mavzuni insert usulidan foydalangan holda o'rganish va B/B/B jadvalini to'ldirish lozim ekanligini aytadi ( 4-ilova) .	3.1.Talabalar o'z fikrlarini bildiradilar.  O'UM ga e'tibor qaratadi.

1-ilova (6.2.)

### Konferensiyada ko'rib chiqish lozim bo'lgan mavzular.

#### 1- mavzu: Taviriy vositalardan foydalanish

- 1.Tasviriy vositalar haqida tushuncha.
- 2.Tasviriy vositalarning turlari.
3. Tasviriy vositalardan foydalanish.



**2-mavzu: Uslubiy fiugralar.**

- 1.Uslubiy figuralarga tavsif.
- 2.Uslubiy figuralarning turlari.
- 3.Uslubiy figuralardan foydalanish.

**3-mavzu: O‘zbek adabiy tilining uslublari.**

1. Rasmiy ish qog‘ozlar uslubiga tavsif.
2. Ilmiy uslubga tavsif.
3. Publitsistika uslubiga tavsif.

2-ilova (6.2.)

**Ma’ruzachi va munozara qatnashchilarini baholash me’zonlari.**

Baholash me’zonlari ( balda)	Qatnashuvchilar		
	Ma’ruzachilar ( I.Sh.)		
1.Ma’ruzaning mazmuni -0.1	1	2	3
-mantiqan bog‘langanligi va izchilligi, nutqning ravonligi- 0.2			
2.Ko‘rgazmalilik- 0.2			
Jami: eng yuqori ball: 0.5 ball			
	OPPONENTLAR ( I.Sh)		
1. Ma’ruzani tahlil qilish -0.1			
-ma’ruzaning ijobiy tomonlarini ochib berish- 0.2			
-ma’ruzada yo‘l qo‘yilgan kamchiliklarni ko‘rsatish- 0.2			
Jami eng yuqori ball: 0.5 ball.			
	Resenzentlar va munozara ishtirokchilari		
1.Savollar			
O‘rinli savollar-0.2			
-Qo‘shimchalar- 0.3			
Jami eng yuqori ball-0.5 ball.			



## ТИЛ ВА УСЛУБ

### РЕЖА


- ТАСВИРИЙ ВОСИТАЛАР
- УСЛУБИЙ ФИГУРАЛАР
- НУТК ВА МАНТИК
- СУЗЛАШУВ НУТКИ
- РАСМИЙ ИШ ТИЛИ, ИЛМИЙ УСЛУБ
- БАДИИЙ УСЛУБ ( ПУБЛИЦИСТИКА )

### ТРОПЛАР


- Метафора
- Метоминия
- Синекдоха
- Муболага
- Аллегория
- Символ
- Ирония
- Антифраза
- Жонлантириш
- Перифраз




# УСЛУБИЙ ФИГУРАЛАР



# ТАФАККУРНИНГ ТУРТ КОНУНИ



# ТИЛ УСЛУБИ




4-ilova(6.2.)

## Мавзу: Nutq madaniyatini o‘stirish yo‘llari.

Reja:

1. Muomala madaniyati.
2. Nutq madaniyatini o‘stirish usullari.
3. Yozma nutq, ma’ruza tayyorlash usuli.

## В/В/В (З/Х/У) jadvali bilan ishlash jarayonining ketma-ketligi



## B/B/B (Z/X/U)- texnikasini qo'llash qoidasi

- 1.Insert texnikasini qo'llab matnni o'qib chiqing.
- 2.Olingan natijani yakka holda sistemali ravishda jadvalda belgilab chiqing.

### B/B/B ( Z/X/U) jadvali

No	Mavzu savollari	Bilaman	Bilishni hoxlayman	Bilib oldim
1	2	3	4	5
1				
2				
3				
4				

<b>7- mavzu</b>	<b>Nutq madaniyatini o'stirish yo'llari</b>
---------------------	---

(Ma'ruza 2 soat,seminar 2 soat)

### 7.1.Maruzada darsini o'qitish texnologiyasi

<i>Talabalar soni: 25</i>	<i>Vaqt -2 soat</i>
<i>Dars shakli</i>	Hamkorlikda o'qitish texnologiyasiga va grafik organayzerlarga asoslangan axborot ma'ruzasi.
<i>Ma'ruza rejasi</i>	1. Muomala madaniyati. 2.Nutq madaniyatini o'stirish usullari. 3.Yozma nutq, ma'ruza tayyorlash usuli.
<i>Dars maqsadi:</i> Nutq madaniyatini o'stirish usullari bilan tanishtirish va bilimlarni shakllantirish	
<i>Pedagog vazifalari:</i> •muomala madaniyatining mohiyatini ochib beradi; •Nutq madaniyatini o'stirish usullari bilan tanishtiradi;	<i>O'quv natijalari:</i> •muomala madaniyatining ahamiyatini tahlil qiladi; •nutq madaniyatini o'stirish usullarini sanab beradi; •ma'ruzaga qo'yiladigan talablarni sanab beradi va izoxlaydi.

•yozma nutq, ma'ruza matnini tayyorlash usullarini mohiyatini yoritadi	.
<i>O'qitishning usul, texnikasi</i>	Ma'ruza, hamkorlikda o'qitish, grafik organayzer: B/B/B (Z/X/U) jadvali, taqdimot.
<i>O'qitish vositalari</i>	Tarqatma materiallar, proyektor, doska, qog'oz A32, marker, skotch.
<i>O'qitish shakli</i>	Jamoa, yakka holda, guruhda ishlash.
<i>O'qitish shart-sharoitlari</i>	Texnik asboblarni qo'llash va guruhlarda ishlash mumkin bo'lgan auditoriya.
<i>Monitoring va baholash</i>	Og'zaki so'roq, organayzer.
<b>Ma'ruza mashg'ulotining texnologik kartasi</b>	

Faoliyat bosqichlari	Faoliyat mazmuni	
	pedagog	talaba
1-bosqich. Kirish (10 daqiqa)	1.1 Darsining mavzusini, maqsadini va erishish lozim bo'lgan o'quv natijalarini e'lon qiladi. 1.2. Darsning tashkil etish ketma-ketligini bayon etadi.	1.1. Tinglaydilar, savol beradilar, yozadilar.
2-bosqich. Asosiy (60 daqiqa)	2.1 Uyga berilgan vazifani, ya'ni insert usulidan foydalanib ma'ruza matnini o'qish va B/B/B jadvalini to'ldirib kelish vazifa qilib berilgan ekanligini eslatadi. • B/B/B jadvalidagi belgilar asosida quyidagi savolga javob berishni so'raydi: « Ma'ruza matnini o'qish jarayonida qanday yangi bilimlarni bilib oldingiz?». Tanishgan tushunchalaringizni ayting deb ularni doskaga yozib boradi. 2.2. Aytilgan tushunchalarga izox berishni so'raydi va blits-so'rov	2.1. Tinglaydi-lar, jadval asosida savollarga javob beradilar  Tushunchalarni aytadilar.

